


ISBN: 978-93-86323-56-2

# FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'TIMSIZ FE`LLARNING TAHLILI



Authors:



SAIDOVA ZARINA SAIDOVNA

Published by

**Novateur Publication**

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030  
[novateurpublication.org](http://novateurpublication.org)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAIDOVA ZARINA SAIDOVNA**

**FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'TIMSIZ FE`LLARNING  
TAHLILI**

**Monografiya**

Buxoro – 2024

## FRANSUZ VA O`ZBEK TILLARIDA O`TIMSIZ FE`LLARINING TAHLILI

### Mundarija

<b>Kirish .....</b>	<b>7</b>
<b>I BOB: Fe'l so'z turkumi va uning fransuz va o'zbek tillarida o'rganilishi .....</b>	<b>10</b>
1.1. Fransuz tilida fe'l so'z turkumi va uning o'rganilishi .....	10
1.2. O'zbek tilida fe'l so'z turkumi va uning o'rganilishi .....	17
1.2.1. Transitivlikning semantik talqini.....	28
1.2.2. Transitivlikning sintaktik talqini.....	30
1.2.3. Transitivlikning pragmatik jihat.....	33
<b>I bob bo`yicha xulosa.....</b>	<b>35</b>
<b>II BOB: Fransuz va o`zbek tillarida o`timli va o`timsiz fe`llarning o`ziga xos xususiyatlari .....</b>	<b>36</b>
2.1.Fransuz     va     o`zbek     tillarida     o`timli     fe`llarning     o`ziga     xos xususiyatlari.....	36
2.2.Fransuz     va     o`zbek     tillarida     o`timsiz     fe`llarning     o`ziga     xos xususiyatlari.....	42
<b>II bob bo`yicha xulosa.....</b>	<b>51</b>
<b>III BOB: Fransuz va o`zbek tillari o`timli va o`timsiz fe`llarning tipologik tahlili.....</b>	<b>52</b>
3.1. Fransuz     va     o`zbek     tillarida     o`timli     fe`llarning     tipologik     tahlili.....	52
3.2. Fransuz     va     o`zbek     tillarida     o`timsiz     fe`llarning     tipologik     tahlili .....	59
<b>III bob bo`yicha xulosa.....</b>	<b>65</b>
<b>Xulosa va takliflar .....</b>	<b>66</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati .....</b>	<b>70</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>76</b>

## Kirish

**Tadqiqot o`byekti** sifatida fransuz va o`zbek tili fe`llari, ularning kategoriyalari, o`timli va o`timsiz fe`llarini tahlil qilish maqsad qilib olingan. Ishda o`zbek va fransuz tili o`timli va o`timsiz fe`llarini o`rganish va munosabat bildirish ko`zlangan.

**Tadqiqot predmeti:** bu mavzuni o`rganishda fransuz va o`zbek tili olimlari tomonidan yozilgan qator o`quv predmetlaridan .

**Tadqiqotning maqsadi.** Mavzuning maqsadi quyidagilardan iborat.

1. O`zbek va fransuz tili fe`llari haqida umumiylumot ;
2. O`timli va o`timsiz fe`llari gap tahlilida ;
3. Mavzuni aniq dalillarda bayon etish singari jihatlardan iborat;

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Mavzuga doir fransuz va o`zbek tilidagi gap andozasida o`timli va o`timsiz fe`llarni yoritish va bu orqali aniq tarjima ahamiyatiga erishish, ikkilanish bo`lgan gap tahlilini kengaytirib, o`quv materiallarda joriy etish.

Ma`lumki har qanday sohadagi o`rgatish mavzulardagi aniqliklar kichik asos bo`lmish ishning vazifasida o`z aksini topadi. Shunga ko`ra, o`ylaymizki, agar hozirdan ilmiy ishimizning maqsadi va vazifasi aniq belgilanib olinsa, kelgusida bu sohadagi yana ilmiy izlanishlar uchun poydevor vazifasini o`tab, ishning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari talabalarga qo`l keluvchi sistemali struktura va tahlillar orqali mashqlarda mazkur mavzu kengaytirilsa – o`zlashtirish oson bo`ladi.

**Tadqiqot materiali** sifatida fransuz tili zamонавија lug`атларининг elektron versiyasi, fransuz leksemalarining izohli tayyor manbalari xizmat qildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Fransuz va o`zbek tili grammatisidagi fe`llariga xos kategoriyalarning grammatik, semantik va struktur xususiyatlariga xos qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradigan umumtilshunoslik tavsifiga hissa qo'shildi.

**Tadqiqotning natijalari.** Dissertasiya ishining amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

- fransuz va o`zbek tili o`timsiz fellari bo`yicha respublika matbuotida ikkita maqola va ilmiy tezislar e`lon qilindi.
- fransuz va o`zbek tili o`timsiz fellari bo`yicha tahlil o`tkazildi, fransuz tilini chet tili sifatida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim manba sifatida foydalanildi;
- O`zbek va fransuz tili o`timli va o`timsiz fe`llarining gazeta matnlarida qo`llanilgan

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** va ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olongan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi nazariy fikr va xulosalarning distributive, semantik hamda lingvostatistik tahlil metodlari vositasida amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** Tadqiqot natijalarining ilmiy o`zbek va fransuz tili o`timsiz fe`llarini

### **Dissertasiyaning tuzilishi**

Ilmiy ish kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat

Hozirgi kunda yurtimizda tilga e`tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan qiziqish davlat darajasiga ko`tarildi. “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o`rgatish bo`yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo`ladigan yangi tizimni yo`lga qo`yish vaqtি-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, – deya ta’kidlaydi qat’iyat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Hozirgi kunda millatlararo o`zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari , xorijiy tilni o`rganishga talab kengayib boraveradi.

Ammo tilni o`rganishning o`ziga yarasha qiyinchiliklari ham bo`ladi, shu jumladan fransuz tili ham shular qatoridan joy olgan. Fransuz tili o`ziga xos

xususiyatlari bilan boshqa tillardan ajralib turganligi sababli, dunyo miqiyosidan joy olib kelmoqda. Bu tilni o'rganib kalayotgan har bir talaba unga boshqa tillardan farq qiluvchi qiyin tomonlari, bir biriga o'xhash grammatik jihatlarini uchratishi mumkin.

"Til kishilik jamiyatida fikr olishuvga imkon beradi". Tilga berilgan bu qiymat, tilning asosini tashkil etuvchi leksikaga ham, leksikaning asosiy bo`limi bo`lgan fe`l kategoriyasiga ham oiddir. "Tildagi asosiy masala uning grammatik qurilishidan va asosiy lug`at fondidan iboratdir". Demak leksika o`zning tilda tutgan mavqeい va funksiyasi jihatidan grammatik qurilish bilan teng va o`sha darajada ahamiyatga egadir.

Leksikada fe`l kategoriyasi alohida o`rin tutadi. U maxsus so`z kategoriyasi sifatida bir tomondan tilda, leksikada alohida o`rin tutsa, ikkinchi tomondan , grammatik qurilishda gap tuzilishida ham katta ahamiyatga ega. Fe`l sistemasi grammatik qurilishda eng muhim rol o`ynovchi vositalardan biri bo`lishi kabi, o`zining har xil forma va kategoriyalari, turli shakl va funksiyalari, o`ziga xos spesifik ottenkalari bilan ham morfologiyada muhim rol o`ynaydi. Fe`l kategoriyasi o`zining ana shu grammatik va morfologik xususiyatlari bilan til qurilishida ajralib turadi.

Quyida biz fransuz va o`zbek tillarida fe`l, fe`l kategoriyalari bo`lmish o`timli-o`timsiz fe`llar haqida fikr yuritamiz. Bundan tashqari ularning fransuz va o`zbek tillarida xususiyatlarini o`rganamiz va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilishga harakat qilamiz. Bularga misollar keltirib o`tamiz va jadvallar bilan to`ldirib boramiz.

## **I bob . Fe`l so`z turkumi va uning fransuz va o`zbek tillarida o`rganilishi.**

### **1.1. Fransuz tilida fe`l so`z turkumi va uning o`rganilishi**

Fransuz tilida fe'l - harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi va zamon, mayl, nisbat, modallik, shaxs va sonda o`zgaradi.

*L'enfant dort, les enfants dorment, l'enfant a dormi, qu'il dorme, dors, ou dormir ?, la lettre est ronde.*

Yuqoridagi misollarda ko`rishimiz mumkinki fe`llar zamon, shaxs va sonda o`zgargan.

Harakat fe'llari har qanday faoliyatni ifodalashi mumkin. Masalan:  
*Alfred frappe Bernard.* Frapper fe`li bu yerda harakat fe`li hisoblanadi. Ya`ni Alfred Bernarni turtib yubordi.

Shuning uchun *faire* fe'li, frantsuz tilidagi asosiy harakat fe'lidir til, asosan, o'z ma'nosini yo'qotdi, kabi boshqa har qanday fe'l o'rnini bosuvchi sifatida harakat qilish qobiliyatini tushuntiradi.

Bundan tashqari fransuz tili fe`llari leksik-grammatik xususiyatlariga ko`ra mustaqil fe`llar va yordamchi fe`llarga bo`linadi. Mustaqil fe`llar harakatni bildiradi, mustaqil ma'noga ega bo`lgan va gapda uning biror bo`lagi vazifasida kela oladi. Masalan: *j'écris une lettre-men xat yozyapman.*

Bu gapda *écrire* fe`li harakatni bildiryapti.

Yordamchi fe`llar asosiy xususiyatlariga qarab, so'z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog'lanma fe'l vazifasini bajaruvchi yordamchi fe`llar, fe`llarga birikib turli qo'shma ma'no ifodalovchi fe`llarga ajratiladi.

Fransuz tilida asosan o`tgan zamonni yasash uchun yordamchi fe`llar ishlataladi. Bunda *avoir* va *être* fe`llaridan foydalaniladi.

Masalan: *J'ai perdu ce live il ya deux semaines-* men ikki hafta oldin bu kitobimni yo`qotib qo`ydim.

Yoki *je suis tombé dans la rue-men ko`chada yiqilib tushdim.*

Fransuz tilida so`z o`zagiga affiks (prefiks, suffikslar) qo'shilish yo`li bilan hosil qilingan fe`llar yasama fe`llar deb yuritiladi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> G.N.Isakova "Fransuz tilida fe'l so'z turkumi" Fransuz tilida fe'l so'z turkumi. Toshkent :2013 y. 5- b.

Prefiks qo`shilish yo`li bilan tub fe`ldan yasama fe`llar hosil qilinadi va yangi hosil qilingan fe`lning ham ma`nosi o`zgaradi.

Masalan : prendre-olmoq ; apprendre-o`rganmoq ;

Lire-o`qimoq ; elire-saylamoq

Ba`zi ot yoki sifatga suffiks qo`shish yo`li bilan yasama fe`llar hosil qilish mumkin.

Masalan : le travail-ish ; travailler-ishlamoq ;

Rouge-qizil ; rougir-qizarmoq.

Fransuz tilida fe`llar uch guruhga bo`linadi. Birinchi guruh fe`llari - er qo`shimchasi bilan tugaydi *aller* fe`lidan tashqari.

Masalan : manger, aimer, commencer, penser, oublier.

Ikkinci guruh fe`llari –ir qo`shimchasi bilan tugaydi. Masalan : *finir, choisir, jaunir*.

Uchinchi guruh fe`llari –oir, re, ir qo`shimchalari bilan tugaydi.

Masalan : Pouvoir, savoir, voir, vouloir, Prendre, croire, mettre, attendre, Courir, offrir, decouvrir.

Buni quyidagi jadvalda ham ko`rishimiz mumkin.

### 1.1-jadval

I guruh fe`llari	II guruh fe`llari	III guruh fe`llari
accepter	abasourdir	abattre
acheter	roidir	dévêtit
chauffer	revernir	devenir
chercher	reverdir	dire
charger	réussir	devoir
chanter	effleurir	détruire
changer	écrouir	détordre
cesser	éclaircir	détenir
charmer	échampir	détendre

charger	écatir	déteindre
causer	ébroudir	desservir
capter	éblouir	descendre
cacher	descendre	désassortir
brûler	ébahir	désapprendre
briller	ébahir	contrevenir
booster	durcir	contrefaire
bouger	doucir	contredire
avancer	cotir	contrebattre
attraper	convertir	contraindre

O`timli va o`timsizlik, bo`lishli va bo`lishsizlik, zamon, mayl, nisbat, shaxs, son kabi grammatik kategoriyalar fe`lning o`ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.<sup>2</sup>

**Shaxs** (la personne) ish-harakat bajaruvchisining so`zlovchiga bo`lgan munosabatini ko`rsatadi.

**Son** (le nombre) kategoriyasi fe`l formalari orqali eganing birlik yoki ko`plikda ekanligini ko`rsatadi.

#### 1.2-jadval

	Birlik	ko`plik
I-shaxs	je marshe	nous marchons
II-shaxs	tu marche	vous marchez
III-shaxs	il marche	ils marchent

Mayl (le mode) fe`ldan anglashilgan ish-harakatning voqelikka munosabatini anglatadi hamda ish-harakatning haqiqatan bajarilganini,

<sup>2</sup> L.E.Malina, O`Turniyozov, L.P.Andreychikova "Fransuz tili grammatikasi" O`qituvchi nashriyoti. !978 y. 77-b.

bajarish haqida buyruqni, bajarilishi shart yoki bajarishga majbur ekanligini ifodalaydi :

Zamon (le temps) ma`nosi ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Harakat so`zlanib turgan paytdan oldin, u bilan bir vaqtda yoki undan keyin bajarilishini ko`rsatadi. Fransuz tilida sakkizta zamon mavjud : le present, le passe compose, l'imparfait, le passe simple, le plus-que-parfait, le passe anterieur, le futur simple et le futur anterieur.

*Cathérine et François ont réservé une table au restaurant.* (passé composé).

Subjonctif xohish-istikni ifodalaydi.

Masalan : Je doute que nous *retrouvions* notre chemin facilement.

Conditionnel shart mayli.

Pierre se leverait plus tôt s'il ne se couchait pas aussi tard.

L'imperatif maslahat yoki buyruq berish uchun ishlatiladi.

*Respirez calmement et detendez-vous.* (maslahat)

Nisbat (la voix) is-harakatning bajaruvchisi (sub`yekti) bilan predmeti (ob`yekti) o`rtasidagi munosabatni ko`rsatadi.

1.Aniq nisbat (voix active)

2.Le maître explique cette règle.

O`qituvchi bu qoidani tushuntiryapti.

3.Majhul nisbat (voix passif)

Cette règle est expliquée par le maître.

Bu qoida o`qituvchi tomonidan tushuntirildi.

4.O`zlik nisbat (voix pronominale)

Je me lave à l'eau froide.

Men sovuq suvgaga yuvinyapman

5. Fe`lning shaxsli va shaxssiz formalari

(Les formes personnelles et non personnelles du verbe)

Fe`l formalarining hammasi ham shaxs kategoriyasiga ega bo`lavermaydi, shunga ko`ra fe`lning shaxsli va shaxssiz formalari mavjuddir. Fe`llarning

shaxsli formalari shaxsga ko`ra o`zgarib gapdagi kesim yoki ot kesimda bog`lovchi fe`l (verbe copule) vazifasini bajaradi.

1. Kesim vazifasida

*Il travaille a l'usine - U zavodda ishlaydi.*

*Nous causons- Biz suhbatlashyapmiz*

2. Ot-kesim vazifasida

*Il est ecolier- U o`quvchi.*

Tu deviens serieux- sen jiddiylashyapsan

Fe`llarning shaxssiz formalariga infinitiv (infinitif), sifatdoshlar ( le participe present, le participe passe, le participe passe compose) va ravishdosh ( gerondif) lar kiradi.<sup>3</sup>

Fe`llarning shaxssiz formalari shaxslarga ko`ra o`zgarmaydi, ular gapda turli gap bo`laklari vazifasida kelishi mumkin :

Il pense *partir* (vositasiz to`ldiruvchi).

Je repete les regles *etudiees*(aniqlaovchi).

Nous marchons *en causant* (hol).

En parlant francais il fait des fautes- u fransuz tilida gapirib turib xatoga yo`l qo`yadi.(ravishdosh)

Shaxsi noma`lum fe`lar quyidagilar hisoblanadi:

Pleuvoir-il pleut

Neiger-il neige

Geler-il gele

Falloir-il faut kabi fe`llar kiradi.

Fe`l xususiyatiga ko`ra quyidagi ikki kategoriyaga bo`linadi : O`timli va o`timsiz .

Bu ikki fe`l kategoriyasi bir – biridan o`zidan keyin to`ldiruvchi talab qilishi yoki qilmasligi bilan farqlanadi.

Masalan: Le chien *conduit* l`aveugle- It ko`zi ko`r odamni olib boryapti.

---

<sup>3</sup> G.N.Isakova “Fransuz tilida fe`l so`z turkumi” Fransuz tilida fe`l so`z turkumi. Toshkent :2013 y. 7- b.

Bu gapda *conduir* fe`li o`zidan keyin to`ldiruvchini talab qilyapti. Shuning uchun biz bunday fe`llarni o`timli fe`llar deb ataymiz.

O`zidan keyin to`ldiruvchi talab qilmaydigan fe`llar esa o`timsiz fe`llar hisoblanadi.

Masalan: La terre *tourney-* yer aylanyapti.

Le chien *dort-* kuchuk uxbabdi.

Yoki shaxssiz fe`llar ham o`timsiz fe`llarga kiradi. Masalan: Il neige-qor yog`yapti.

XVIII asr oxiriga kelib unli tovushlarning susayishi va neytrallashishi o`tgan zamon sifatdosh (participle passe) shaklining moslashishini tartibsiz o`rganilishiga olib keldi. XIX asrda Grammatik o`zgarishlar [Chervel 1977: 110-123] o`tgan zamon sifatdosh moslashishini qoidasini o`rganish talab etadi.

Natijada bu bir tomondan fe`llarning guruhini, boshqa tomondan o`sha davr vositasiz to`ldiruvchini o`rganishga ta`sir etdi . Vositasiz to`ldiruvchi nazariy grammatikaning funksiyalari markazida bo`lishi mumkin. Butun izlanishlar mana su tushuncha atrofida aylanadi, o`timlilik mana shu asrdan boshlab o`rganildi va to`ldiruvchi aktif fe`lda aniqlanganligi sababli bu fe`l guruhi sifatdosh moslashishi kerak bo`lgan to`ldiruvchini kashf qilishga imkoniyat yaratadi [Chervel 1977: 110-123].

Objet interne tushunchasi hamma grammatikada mavjud. Klassik grammatikadan boshlab hozirgi grammatikagacha . faktni ifodalash uchun fe`l o`timsiz fe`l boshidan vositali to`ldiruvchi konstruksiyasi orqali ta`minlangan uchun. Ob`yekt bilan bog`liq bo`lishi mumkin bo`lgan .

Shundan boshlab , tushuncha ko`proq yoki kamroq cheklangan yoki ko`proq yoki kamroq keng bo`ladi, ularning foydalilanilgan parametrlariga qarab uni tavsiflash va izohlash maqsadida.

Tilshunoslar borki , uni asosan o`timsiz qo`llanishli fe`llar doirasiga kiritadilar. Bularga Grevisse 1936: 538, Wagner et Pinchon 1962: 72, Arrive 1986: 434, Denis et Sancier-chateau 1993: 374ou Wilmet 1997: 485, boshqalar uni o`timli fe`llar guuhi bo`yicha kengaytirishdi Riegel 1994 :220.

Ma`lumki o`timli va o`timsiz fe`llar maktab yoshidan o`rganilib kelinadi va buni bir qarashda aniqlashda o`quvchilarga muammo tug`dirmaydi.

Predmetga o`tgan harakatni bildiruvchi fe`llar, transitif fe`llar deb ataladi. Boshqa barcha fe`llar intransitive fe`llar hisoblanadi. O`timli fe`llar o`zida ot yoki tushum kelishigidagi olmoshga ega bo`lishi mumkin ya`ni predlogsiz keladi: oldi (nimani), kitobni (tushum kelishigi), uchratmoq (kimni) uni (tushum kelishigi).

Biroq, tilshuoslar doimo fe`llarning o`timliligin tipologik jihatdan ham, tilni alohida o`rganishda ham o`rganishga qaytadilar. Bu haqida fransuz tilshunosi Gilber Lazard shunday yozadi: “transitivlikni tipologik o`rganishda yagona asos bu semantik plan. Umumiyligini qoladi fe`lni o`timlilik ma`nosini qoladi, qolgan hamma narsa-to`g`ridan-to`g`ri ob`yekt, aktantlar, predloglar ob`yekt bilan- mos kelmasligi va hatto harakat qilishda chalkashlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun transitivlikni aniqlash va tavsiflash bilan bog`liq masalalar ushbu toifadagi tadqiqotning asosiy yo`nalishlari bo`lishi kerak.

“Transitivlik- faqat fe`llarning grammatik xususiyati emas, balki bu aqliy kategoriya, harakatning qanchaligini aniqlab beradigan fe`l ifodalab beradigan, predmetga to`g`ridan-to`g`ri o`tadigan [Epshteyn 2007: 1]. Shunday qilib taniqli rus madaniyatshunosi va tilshunos Mixail Epshteyn “o`timlilik” mavzusiga shunday keng doirada yondashadi.

Transitivlikning bunday talqini savolga qanday javob berishi mumkin? O`timli fe`l vositali to`ldiruvchi olmagan konstruksiyada o`timsiz bo`la oladimi? Masalan, tikmoq fe`lini quyidagi gaplarda U tikyapti” U yaxshi tikyapti” o`timsiz fe`l deb qarasak bo`ladimi? O. Yespersen o`zining “Grammatika falsafasi” kitobida quyidagilarni misol qilib keltiradi: U yaxshi kuylaydi, U fransuz qo`shiqlarini kuylaydi [Yespersen 1958: 346].

Fransuz tili fe`llari doirasida o`timsiz fe`llarining ishlatilishiga doir ko`pgina olimlar ish olib borishgan. Bular qatoriga Grevisse [1936 : 374] Wagner et Pinshon [1962 : 485], boshqa olimlar o`timli fe`llarga Riegel [1994:220].

Tarixan o`timlilik tushunchasi faqat fe`lga nisbatan qo`llanilgan, to`liq gapga emas. XX asr oxiriga kelib o`timlilik xuddi frazali xarakteristika sifatida gap darajasida ham o`rganila boshlandi.

XX asr davomida Fransiya jahon til fanining yetakchi markazlardan biri sifatida davom etdi va davom etib kelmoqda. Fransuz tilining rivojlanishi uchun tilshunoslikka F.de Sossyur va C. Balli g`oyalari kuchli ta`sir ko`rsatdi.

Shu bilan birga fransuz olimlari bir qancha original g`oyalarni ilgari surdilar.

Avvalo shuni ta`kidlash kerakki, L.Tesnier kabi atoqli olimlar, E. Benveniste va A. Martinet, ularning faoliyati urushdan keyingi davrda allaqachon gullab-yashnagan edi. Ularning eng kattasi Lusyen Tesnier edi. F.de Sossyur singari, u hayoti davomida nisbatan kam tanilgan va faqatgina vafotidan keyingina tan olingan olim hisoblanadi.

## **1.2. O`zbek tilida fe'l so'z turkumi va uning o'r ganilishi**

Shaxs va predmetning harakat va holatini bildirib, gapda kesim vazifasida keluvchi mustaqil so`z turkumiga fe'l deyiladi.

O`zbek tilida fe'lning morfologik xususiyatlari fe'llardagi so'z yasalish tizimining faolligi, o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari hamda vazifa va ma'no turlarining mavjudligi fe'l turkumining qamrovi kengligini ko`rsatadi.

Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko`ra turlimazmuniy guruhlarga bo`linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog`liq fe`lar farqlanadi. Bulardan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

***Harakat fe 'li*** jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta`sir etish, zarb bcrish kabi ko'rinishda bo`lishi mumkin. Qo`l, oyoq, yuz, og`iz, gavda bilan bog`liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turadi.

***Oyoq bilan bog`liq harakatni ifodalovchi fe'I:*** yurmoq, kezmoq, yo'rg`alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandiraklamoq, do'konglamoq, tentiramoq, tepkilamoq, tepmoq, toptamoq, depsinmoq, tisarilmoq.

**Qo'l bilan bog`liq harakatni ifodalovchi fe'I:** urmoq, solmoq, ushlarimoq, silamoq, timamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, changaUamoq, mushtlamoq, chertmoq, homchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq;

Yuz, gavda, og`iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog`liq harakat ham mavjud.

**Nutq fe'llari** insonning gapirish faoliyati bilan bog`liq harakatlarni ifodalaydi: gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to'ng'illamoq, g'o 'ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillamoq, javob bermoq, vag'illamoq kabi.

**Holat fe 'llari.** Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega. Holatni to'rtga bo`lish mumkin:

- a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog`liq): *eslash, unutish, yodlash, tubanlashmoq;*
- b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo`lishi bilan bog`liq): *xafa bo 'Imoq, shodlanmoq, esankiramoq, dovdiramoq, g'azablanmoq*
- d) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog`liq): *holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq',*
- e) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog`liq): *boyimoq, kambag'allashmoq, ko 'tarilmoq, urilmoq, quvg'in bo 'Imoq.*

**Natijali faoliyat fe 'llari** tizimi yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo 'lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o 'chirmoq kabi birliklami o 'z ichiga oladi.

**Tafakkur fe'llari** sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog`liq oylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko 'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabilar kiradi.

**Munosabat fe'llari** qatori erkalamoq, suymoq, yaxshi ko`rmoq, parvona bo`lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq kabi ijobjiy xarakterdagi munosabat fe'llari, beti qursin, xudo olsin, qorasi o 'chsin, baloga giriftor bo bin, juvonmarg bo`lgur kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llaridan tashkil topadi.

O`zbek tilida harakat fe'llari shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar hisoblanadi.

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar holat fe'llari deb aytildi. Masalan: *shodlandi*, *sarg`aydi* kabi va bular nima qildi, nima qilyapti, nima qilmoqchi so`roqlariga javob beradi. Buni quyidagi misolda ko`rishimiz mumkin.

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo'r etding,

Ko`zimga oyni berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim.(Usmon Nosir "Yurak" she'ri).

O`zbek tilida ham fransuz tili singari fe'l morfologik jihatdan o'ziga xos kategoriyaga ega bo'lib, ularni ifoda etuvchi turlicha ko'rsatkichlar mavjud.

Nisbat (daraja) kategoriyasi harakatning subyekt va obyektga bo'lgan munosabatini ifoda etadi.O`zbek tilida ularning besh xil shakli ajratiladi:

1. Aniq nisbat. Bunda munosabat ifodalanmaydi.

Misol: *bildi*, *ko`rdi*, *yuvdi*, *osdi*, *kiydi*, *ko'rmoq*, *aytmoq*, *yozmoq*, *o'ylamoq*, *bormoq*, *kelmoq*;

2.O`zlik nisbat. Bajaruvchining o`z ustida amalga oshirilishini ko`rsatuvchi nisbat.- yuvindi, kiyindi. kiymoq, yuvinmoq, ko'rinoq, ochilmoq, Kerilmoq, joylashmoq;

3.Majhullik nisbati. Bu nisbatda bajaruvchi noma'lum bo`ladi. –yuvildi, kiyildi olinmoq, aytilmoq, tozalanmoq, bo'shatilmoq, yurilmoq;

4.Birgalik nisbati. Ish-harakatning birgalikda bajarilishini ko`rsatadi. – yuvishdi. yozishmoq, keltirishmoq, ko'rsatishmoq, arazlashmoq, ketishmoq;

5.Orttirma nisbati. Bu nisbatda ish- harakat boshqalar tomonidan bajarilganini bildiradi. – jo`nattirdi, yubortirdi, yuvdirtirdi. keltirmoq, yozdirmoq, o'tkazmoq, ishlatmoq, tomizmoq, pishirmoq, qaytarmoq, ko'rsatmoq;

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi harakatning bajarilishi bilan bog'liq tasdiq yoki inkorni anglatadi:

1.3-jadval

<b>bo'lishli fe'l</b>	<b>bo'lishsiz fe'l</b>
tasdiq	Inkor
keldi	kelmadi
bordi	bormadi
kuyди	kuymadi
yozdi	yozmadi
kuldi	kulmadi

Harakatning vogelikka munosabatini ifodalaydigan grammatik shakllar fe'l mayllari deyiladi. Ular uch guruhga bo`linadi.

1. Aniqlik mayli. Bu mayl uch zamondan, ya`ni hozirgi, o`tgan, kelasi zamonlardan birida aniq bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakatni bildiradi.

Misol: Ikromjon osmonga qaray-qaray ko`chaga chiqib ketdi (Said Ahmad. "Ufq")

Hozirdaqa alam o`tib ketgan paytlarda Aziz o`zini-o`zi koyishga ham tushadi(O.Yo.)

2. Buyruq istak mayli.

Bu mayl ish-harakatning bajarilishi jarayonidagi buyruqni, istakni, iltimos, undash ma`nolarini ifodalaydi.

Misol: Yaxshilab eshitib, qulog`inga quyib ol. Amakimning ko`ngli yarimta, yonimdan jilma (Said Ahmad)

Shuni bilib qo`ying demoqchiman, xolos. (O.Yoqubov)

3. Shart mayli. Biror harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo`yilgan harakatni ifodalaydi. Fe`lning shart mayli shakli fe'l negiziga -sa qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

Misol: yozsam edi, o`qisam edi.

Fe`lning zamon kategoriyasi harakat bajarilishiga bog'liq vaqt, paytni aks ettiradi. Ular o`tgan, hozirgi va kelasi zamon shaklida bo`ladi:

-o`tgan zamon fe'llari harakatning nutq momentidan avval bajarilganligini ko`rsatadi: o`qidi, yozgan, boribdi;

-hozirgi zamon fe'llari harakatning nutq momenti bilan bir vaqtida kechayotganligini ifodalaydi: kelyapti, ishlayotir, ketmoqda:  
 -kelasi zamon fe'llari harakatning nutq momentidan keyin bajarilishini aks ettiradi: tayyorlanmoqchi, gapirar;

shaxs-son kategoriyasi harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi. O'zbek tilida xil shaxs (I, II, III) va ikki xil son (birlik, ko'plik) ko'rsatkichlari mavjud:

#### 1.4-jadval

shaxs	Birlik	Ko`plik
I shaxs	keldim, gapiryapman,	keldik, gapiryapmiz
II shaxs	kelding, gapiryapsan	keldingiz, gapiryapsiz(lar)
III shaxs	keldi, gapiryapti	keldilar, gapiryaptilar

O`zbek tilida fe'llar boshqa so'z turkumlari kabi morfologik tuzilishiga ko'ra *sodda, yasama va qo'shma fe'llarga* bo'linadi.

Sodda (yoki tub) fe'llar bir o'zakdan iborat bo'lib, sodda fe'llar tarkibida qo'shimcha yoki old qo'shimcha bo'lmaydi.

*kelmoq, ko'rmoq, ishlaromoq, o'smoq.*

Fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasash *morfologik usul* hisoblanadi. Fe'llar asosan, quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

**-la.** *gulla, kuyla, qorala, oqla, yangila, hozirla, shitirla, ufla.*

**-a** *osha, sana, o'yna, bo'sha.*

**-y (-ay)** *kuchay, qoray, ozay, zo'ray.*

**-r (-ar)** *ko'kar, qizar, yoshar, eskir.*

**-ik (-iq)** *kechik, birik, zo'riq, chiniq.*

**-sira** *sensira, yotsira, uyqusira.*

-*i boyi, tinchi, changi.*

-*qir o 'shqir, hayqir.*

-*lan (-lash)* *otlan, ikkilan, yaxshilan, suhbatlash, yordamlash, tezlash.*

-*illa yaltilla, gurilla, do 'rilla.*

-*ira yaltira, yarqira.*

-*ir gapir, tupir.*

**Sintaktik usul bilan fe'l yasash.** Bu usul bilan qo'shma va juft fe'llar hosil qilinadi.

**Qo'shma fe'l** ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Qo'shma fe'l yetakchi va ko'makchi qismlardan tarkib topadi.

*Imzo qo'ymoq:* *imzo-etakchi, qo'ymoq-ko'makchi* qism. Asosiy ma'no yetakchi qism orqali ifodalanadi, ko'makchi qism esa qo'shma fe'l hosil qilishda va turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi: *borib keldi, kirib chiqdi, tabassum qildi, ta'zim qildi, ta'zim bajo keltirdi.*

Qo'shma fe'l tarkibidagi so'zlarni tabiatiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

**1. Fe'l+fe'l** tipidagi qo'shma fe'l: *sotib olmoq, kirib chiqmoq, borib kelmoq, olib kelmoq.*

**2. Ot+fe'l** tipidagi qo'shma fe'l: *va'da bermoq, quloq solmoq, iltimos qilmoq, himoya qilmoq.*

Bu tipdagi qo'shma fe'llarning ayrimlari sodda fe'llarga sinonim bo'ladi: *tamom qildi – tamomladi, yordam berdi – yordamlashdi.* Bu tipdagi qo'shma fe'llarni ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan farqlash kerak. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yangi ma'no ifodalamaydi, balki yetakchi fe'lidan anglashilgan harakat ma'nosi bilan bog'liq qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi: *o'qib chiqdi, yozib bo'ldi, chizib ko'rni, tortib qo'ydi, o'chira boshladi.*

Juft holda qo'llanib, yangi ma'no ifodalovchi fe'llar **juft fe'l** hisoblanadi: *turtdi-qo'ydi, uchdi-ketdi, aytdi-qo'ydi, bordi-keldi.* Juft fe'llar chiziqcha bilan yoziladi.

Ish – harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe`ldagi o`timli va o`timsizlik ma`nosini hosil qiladi: *Ol, o'qi, saqla* kabilar o`timli fe'llardir. *Bor, kel, o'tir, uxla* kabilar o'timsiz fe'llardir. Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o'tganligini (vositasiz to`ldiruvchiga), ta'sir qilishini bildiradigan fe'llar o`timli fe'l deyiladi. **Masalan:** *ashula (ni,) aytmoq, xat (ni) yozmoq, kitob (ni) o'qimoq, kino (ni) ko'rmoq* kabi.<sup>4</sup>

XI asrda yashab o`tgan tilshunos, tarixchi, adabiyotshunos olim Mahmud Qoshg`ariy o`zbek tilshunosligi tarixida morfologiyani, so`zni turkumlarga ajratish, har bir turkumning o`ziga xos jihatini chuqr tahlil qilishni boshlab bergan olim hisoblanadi.

Taniqli olim, S. Mutallibov Mahmud Qoshg`ariyning “Devoni lug`otit turk” asarini tarjima qiladi va o`tgan asrning 60-yillarida o`z ilmiy ishini ommaga yetkazdi.

S. Mutallibov o`z sharhida Mahmud Qoshg`ariyning “Devoni lug`otit turk” asarida fe'l to`g`risida mulohaza yuritayotgan o`rinlarda fe'llarning yasalishi, ulardagi zamon, nisbat, o`timli-o`timsizlik kategoriyalari haqida ma'lumot berib o`tadi. Devonda fe'l zamonlaridan o`tgan zamonga alohida e'tibor berilgan”. [Mutallibov S. 1960.] Chunonchi, “Kumush quyoshga qo`nsa, oltin o`z oyog`i bilan keladi”. (maqol), yoki “U mendan biror narsa *umid qildi*”, “O`t ko`kardi, undi”, “ U uyga ketdi” kabi misollarni olim o`z asarida keltirib o`tadi. [Mutallibov S. 1960]

Bundan tashqari Xorazmda tavallud topgan Mahmud Zamaxshariy ham tilshunoslikka oid bir qancha asar yozganligi to`g`risida A.Nurmonovning “O`zbek tilshunosligi tarixi” asaridan bilishimiz mumkin. Asarda keltirilishicha Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul adab” (“Adabiyotga kirish”) asari besh qismdan iborat bo`lib, uning ikki qismi fe`lga bag`ishlangan. Ya`ni, 1.Fe`l. 2. Fe`l o`zgarishlari. “Zamaxshariy

<sup>4</sup> Hamroyev M. Muhammedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007 y-125 b.

bu asarida fe'lning o'zak tarkibiga ko'ra sinflarga ajratadi “,-deb ma`lumot beradi olim.[ Nurmonov A.2002]

“Abu Nasr Forobiy tilshunoslik haqidagi fikrlarini o`zining “Fanlar tasnifi haqidagi so`z ” asarida bayon qilgan. Tur va jinsni bildiruvchi so`zlar asosida Forobiy so`z turkumlarini tasnif etadi. Muallif tur va jinsni bildiradigan so`zlarni arab grammatika maktablari an`analari asosida ot, fe`l va harflarga ajratadi. Shu bilan birga ot va fe`llarning grammatik kategoriyalari haqida ham ma`lumot beradi. Xususan, ot va fe`llar uchun jins, son kategoriyalari xos ekanligini, shuningdek, fe`llarning o`ziga xos belgisi zamon (o`tgan, hozirgi, kelasi zamon) bildirishi ekanligini ta`kidlaydi”,-degan fikrlarni A.Nurmonovning “O`zbek tilshunosligi tarixi” asarida o`qishimiz mumkin. [Nurmonov 2002]

A.Nurmonovning “O`zbek tilshunosligi tarixi” kitobida turkiy tillar lug`ati va grammatikasiga bag`ishlangan “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug`atit turkiya” asari haqida ham ma`lumot keltirilgan. “Garchi bu asar muallifi noaniq bo`lsada (asarda uning muallifi haqida hech qanday ma`lumot uchramaydi, lekin kitobda bu asarni yozishga ko`pchilik da`vat etgani haqida fikr yuritadiki, demak, muallif tilshunos sifatida o`sha davrda jamoatchilik o`rtasida tanilgan, degan xulosaga kelish mumkin bo`ladi) lug`at tuzilishi ham, grammatik materialning berilishi ham asar muallifining tilshunoslik bo`yicha katta tajribaga ega ekanligini ko`rsatadi”,- deb ta`kidlaydi olim. “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug`atit turkiya” asarida so`z turkumiga ham katta ahamiyat berilganligi, fe`lning nisbat, bo`lishli-bo`lishsizlik, shaxs, mayl, zamon kategoriyalari atroflicha yoritilganligi to`g`risida ma`lumotga ega bo`lishimiz mumkin. [Nurmonov A.2002]

Buyuk mutafakkir, o`zbek adabiy tilining asoschisi va targ'ibotchisi Alisher Navoiy tilshunoslik tarixida ham o'chmas iz qoldirgan ulug' olim hisoblanadi. M. Fozilovaning bitiruv malakaviy ishida quyidagi ma`lumotlarni o`qishimiz mumkin: “Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari “Muhokamat-ul lug`atayn” asarida jamlangan. Mazkur asarda olim

morfologiyaga oid o`z fikrlarni bildirar ekan, asosiy so`z turkumi sifatida fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birliklarining ma'no jihatidan, shakl va qo'llash jihatidan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini tilshunos olim sifatida tahlil qiladi. Fe'lning nisbati, fe'lning o'zlik, orttirma va birliglik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi. Alisher Navoiy fe'lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi -t qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini aytadi, qator misollar keltiradi. Jumladan: *yugurt, yashurt, chiqart*, va h.k". [Fozilova M. 2017.]

"Zamonaviy o'zbek tili" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda 1760 yilda tuzilgan "Sangloh" (Mirzo Mehdixon-Nizom-al-din Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy tomonidan tuzilgan) lug'atining "Maboni ul-lug'at" deb atalgan grammatikaga oid qismi olti bo'limni o`z ichiga oladi. Grammatika qismining har bir bobida fe'lning barcha shakliga e'tibor qaratiladi: masdar shaklida uning nisbat ko'rinishi, o'tgan zamon shakli, mayl, bo'lishli-bo`lishsizlik kabi shakli izohlanadi. Mana shu lug`atda fe'l shakli hosil qiluvchi affiksning fonetik variant hamda qo'llanish xususiyati ham berilgan. [Zamonaviy o'zbek tili. 2008.]

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat so`z turkumlarini, jumladan, fe'l so`z turkumini tadqiq etadi. Fe'lga harakat va holat ifodalovchi turkum sifatida yondashadi. Ayniqsa, olimning fe'l turkumiga oid qarashi katta ahamiyatga ega. Uning "har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi" tarzida aytilgan fikri juda muhim",-degan fikrlari "Zamonaviy o'zbek tili" asarida ma'lumot sifatida keltirilgan. Olimning fe'lning zamon grammatik kategoriyasiga, shaxs-son kategoriyasiga, shuningdek, bo'lishli-bo`lishsizlik, o`timli-o`timsizlik, nisbat kabi kategoriyasiga nisbatan o`z qarashini bayon qilganligi to`g`risidagi fikrlarni o'qishimiz mumkin.[ Zamonaviy o'zbek tili. 2008.]

XX asrning 50-yillaridan boshlab o'zbek tili so'z turkumlarini maxsus, ya'ni fundamental o'rjanila boshlandi. Jumladan, 50-yillar boshlarida professor Ayyub G'ulomov fe'l borasidagi o'z kuzatishlarini e'lon qildi. "Zamonaviy o'zbek tili" keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda uning "Fe'l" kitobining yaratilishi o'zbek tilshunosligida katta voqeа bo'ldi. Bu kitobda: 1. fe'l turkumi alohida yaxlit tarzda chuqur tahlil qilingan; 2. fe'l haqidagi barcha mavjud qarash umumlashtirilgan. Fe'lga xos xususiyat: ma'nosi va grammatik belgisi; grammatik kategoriysi; yasalishi; to'liqsiz fe'l, fe'lning sintaktik vazifasi bat afsil tahlil qilinganligi aytilgan. [ Zamonaviy o'zbek tili. 2008.]

Undan tashqari XX asr o'zbek tilshunosligi morfologiya sohasining taraqqiyotida yirik olim Said Usmonovning roli katta o'rin tutadi. Ayniqsa uning "Ba'zi fe'l formalari haqida" (1966) fe'l to'g'risida yozgan kitobi o'zbek tili fe'llarining taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.[ Zamonaviy o'zbek tili. 2008.]

Akademik Azim Hojiyev fe'l so'z turkumining o'rganilishiga katta e'tibor qaratgan va buning ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan olim hisoblanadi. Uning "Fe'l", "Ko'makchi fe'l", "To'liqsiz fe'l" kitoblari so'z turkumlari ichida fe'l turkumiga alohida e'tibor qaratganini bildiradi. A. Hojiyevning "Fe'l" kitobida fe'lning tarixi, zamon, nisbat kategoriyalari, fe'lning barcha xususiyatlari atroficha yoritib berilgan. Uning "To'liqsiz fe'l" monografiyasi tilshunoslikda kam o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Monografiyada to'liqsiz fe'l formalari va ular yordamida hosil bo'luvchi fe'l formalarining ma'no va vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan. [Hojiyev A. 1970.]

**Masalan:** Uzunni qo'y, qisqani kes *ekan*-da dunyoning ishi. [Hojiyev A 1970.]

Davraning to`rida o`tirib kelgan Komiljon *edi*.

Bu yerda *edi*, *ekan* to`liqsiz fe'l hisoblanadi.

M. Sodiqovaning “Fe'l stilistikasi” monografiyasida badiiy asarda qo'llangan fe'llar, fe'lli birikmalar stilistik aspekda analiz qilingan. [Sodiqova. M. 1975.]

Masalan: **Qani endi**, shu tobda ko`rsam. (Said Ahmad)

Shunday mehnat qilganimga yarasha **koshki** ko`nglim tinch **bo`lsa**. (A. Qahhor), Achchiq-achchiq alamli so`zlar aytsa ham mayli (Said Ahmad).

Shuni aytishimiz kerakki Sh. Rahmatullayev ham fe'l bo`yicha ilmiy tadqiqot olib brogan olim hisoblanadi. Uning “O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog`lashuvi” ilmiy ishi bunga yaqqol dalil bo`la oladi. Ilmiy ishda frazemalar dastlab bog`lashuvsiz va bog`lashuvli deb ikki guruhga bo`linadi. Bog`lashuvli frazemalar bir, ikki, uch bog`lashuvli deb to`dalanadi va ularning bog`lashuv imkoniyati batafsil bayon qilinadi. “Bog`lashuv asli barcha turkum leksemalariga xos , lekin fe`lda eng kuchli. “deb ta`kidlaydi olim o`z ilmiy ishida.[ Rahmatullayev Sh. 1992.]

Tilshunos Sh. Shukurov ham o'zbek tilshunoslida fe'l so`z turkumini, uning taraqqiyoti va fe'l zamonlari to`g`risida o`z ilmiy tadqiqotini olib brogan.

Uning “O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti” asarida o'zbek tilida fe'l mayllaridan buyruq-istak va shart mayllarini o`rganishga bag`ishlangan. [Shukurov Sh. . 1980]. Olim o`z asarida buyruq-istak maylining III shaxs formalari, Shart maylining hozirgi-kelasi zamonda qo'llanishi va ma`nolari to`grisida o`z qarashlarini bayon qilgan. Bundan tashqari olimning “O'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti” asari ham aynan o'zbek tili tilshunoslida fe'l so`z turkumi so`z turkumlari ichida qanchalik muhim ekanligining yaqqol isbotidir.

Shuni aytishimiz kerakki “Zamonaviy o'zbek tilshunosligi” kitobida o'zbek tilshunosligi ravnaqiga o`z hissalarini qo`shtigan bir qancha olimlar to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan. Jumladan, S.Akbarovning “O'zbek tilida ko`makchi fe'l”, “ O'zbek tilida qo`shma fe'l” tadqiqoti, J.Muxtorovning bog`lovchi fe'l darajasi, tadqiqotiga doir fe'l nisbat shaklini o`rganish bo`yicha

ancha jiddiy tadqiqot yuzaga keldi. Bu borada S.Sultonsaidova, S.Maxmatqulovning nomzodlik va doktorlok dissertasiyasini, M.A`lamovaning “O`zbek tilidagi fe`lda nisbat kategoriysi” monografiyasini, R.Rasulov, I.Qo`chqortoyev, Yo.Tojiyevning fe`l semantikasi, valentligi, fe`lning yasalishi, undagi grammatik kategoriya (o`timli, o`timsizlik, tarz kategoriysi) va uning o`zaro munosabati masalasi bo`yicha olib borilgan boshqa tadqiqotni ham sanab o`tish mumkin. [Zamonaviy o`zbek tili. 2008.]

Mustaqillik yillaridan keyin ham fe`l so‘z turkumi olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Xususan, tilshunos R.Rasulovning “O`zbek tili fe`lining ma`no tuzilishi”(2005) qo`llanmasi, M.Mirtojiyevning “O`zbek tilida fe`l valentliklari” (2007) , M.Jo`rabyevanining “O`zbek tili morfologiyasi. Fe`l” (1999) qo`llanmasi, B.Bahriiddinovaning “O`zbek tilida fe`l lug`aviy shakli” (2002) mavzusiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiya ishi,[ Zamonaviy o`zbek tili. 2008.] R.Bobokalonovning “Fe`l valentligi munosabati xususida”(2018) yozgan maqolalari fikrimizning dalilidir. [Bobokalonovning R. 2018.]

Fe`lni qiyosiy o`rganishda ham ancha ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, fransuz va o`zbek tillarida R.Bobokalonov, N.Hayatovalar chog’ishtirma tilshunoslik yo’nalishda ish olib bormoqdalar. Chunonchi, ularning “Le sens lexical des verbes. Analyse des champs sémantiques de la vie et de la mort” maqolalarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. [Bobokalonov R. Hayatova N. 2019.]

### **1.2.1. Transitivlikning semantik talqini**

“Transitivlik---faqat fe`llarning grammatik xususiyati emas, balki , fe`l orqali ifodalangan harakatning qanchaligini aniqlaydigan, predmetga to`g`ridan-to`g`ri o`tadigan aqliy kategoriya hamdir [Epshteyn 2007: 1]. Shunday qilib taniqli

rus madaniyatshunosi va tilshunosi Mixail Epshteyn “o`timlilik” mavzusiga shunday keng doirada yondashadi.

Transitivlik kategoriyasi qanday ma`no anglatadi? Fe`lning vositasiz to`ldiruvchini boshqarish qobiliyati orqasida nima turadi?

Bu haqida fransuz tilshunosi Gilber Lazard shunday yozadi: “Transitivlikni tipologik o`rganishda yagona asos bu semantik plan: fe`lning o`timlilik ma`nosi qoladi, qolgan hamma narsa-vositasiz to`ldiuvchi, aktantlar, to`ldiuvchi oldidagi predloglar - mos kelmasligi va hattoki “universal” transitivlik formulasini keltirib chiqarishda chalkashlikka olib kelishi mumkin.

Shuning uchun transitivlikni aniqlash va tavsiflash bilan bog`liq masalalar ushbu toifadagi tadqiqotning asosiy yo`nalishlari bo`lishi kerak. [Lazard 2001].

Tilshunoslar semantik nuqtai nazardan transitivlikni tavsiflovchi bir nechta asosiy parametrlarni aniqladilar: harakatning tashabbuskori-faol agensning mavjudligi,- agensning ta`sir qilish natijasida o`zgarishlarga duchor bo`lgan ob`yektning, shuningdek harakat ishtirokchilari o`rtasidagi yaqin aloqani. Quyida talqinlarning prototipli o`timlilik hodisasiga misollar keltiramiz.

T.Givon prototipli o`timlilik hodisasini uch o`lchov yordamida tasvirlashni taklif qiladi. Bu o`zining xohishiga ko`ra harakat qiladigan va hodisa uchun mas`ul hisoblangan-agens, hodisani nazorat qilmaydigan va hodisani ta`sirini qayd etuvchi- pasiens , va nodurativ, davom etmaydigan , nofaraziy - fe`l. [Vejbitska 1999: 120].

Talimi Givon til hodisalarining tavsifi inson aqliy operatsiyalarining xususiyatlariiga mos kelishi kerakligini yoqlaydi. Aynan shuning uchun u fe`lning muayyan modelni emas, balki o`timlilik hodisasini qayta qurishga harakat qiladi.

A.Vejbitska prototipli o`timli stenariyni quyidagi formula orqali tasvirlaydi: qandaydir bir vaqtda kimdir (nimadir) kim biladir nimadir qildi. Buning tufayli bu narsa bilan nimadir sodir bo`ldi va shu vaqtda bu inson shunday bo`lishi-

Tranzitivlik bu hodisaning semantik komponentining an`anaviy ko`rinishidir. Ispaniyalik tilshunos Ninio prototipli o`timlilik hodisasi formulalarni qayta ko`rib chiqdi , xususan bolalar nutqini o`rganish bo`yicha ma`lumotlarga tayangan holda semantik o`timlilik komponenti bo`yicha o`z nuqtai nazarini taklif qildi . U idrok etishga qaratilgan harakat sub`yekti tomonidan sodir bo`layotgan narsa: o`zgarishlarga uchragan ob`yekt emas, o`timlilik hodisasi diqqat markazida bo`lib, sub`yektning ob`yektga munosabati hisoblanadi. Ob`yektlarni ob`yekt doirasiga kiritish, Nionioning fikriga ko`ra , prototip transitivlikning asosiy g`oyasidir. [Ninio, 1999].

Shunday qilib, transitivlikni o`rganayotganda aniq asosga ega semantik planidan boshlash kerak. Chunki konstruksiya semantikasida vaziyat ishtirokchilarining rollari va funksiyalari belgilab qo`yilgan bo`lib, ular allaqachon sintaktik darajada ma`lum bir til orqali ifodalangan. Lekin afsuski, transitivlikning mohiyatini tushunish hali ham qiyin: bu ona tilida so`zlashuvchilar uchun intuitiv tushunarli , lekin og`zaki nutq uchun o`ziga xos emas. Transitivlik - sub`yekt va ob`yekt o`rtasidagi munosabatdir, uning doirasida sub`yekt ob`yektga harakat qiladi.

### **1.2.2. Transitivlikning sintaktik talqini**

Transitivlik valentlik bilan bevosita bog`liq. Fe`lning valentligi- fe`lning sintaktik munosabatga boshqa elementlar bilan kirish qobiliyatidir. Bu konsepsiyanı S.D. Katsnelson tilshunoslikka kiritadi.

Tilshunos olim valentlik haqida xuddi til birligining ma`no xususiyati deb yozadi, [Katsnelson 1987: 21]. Bu kuzatuvdan kelib chiqib , Katznelson ta`rifiga ko`ra valentlik til birligining rasmiy xususiyati emas, balki semantik xususiyatdir.


Valentlik so`zi lotincha “valentia” leksemasidan olingan bo`lib, “kuch” degan ma`noni anglatadi.

Yevropa tilshunosligiga “valentlik” atamasi ilk bor Lucien Tesnier tomonidan kiritilgan. U bu haqida shunday deydi: “Valentlik faqat fe`lga xos

xususiyatdir”. Uning so`zlariga ko`ra valentlik-fe`l biriktira oladigan aktantlar miqdori. “Elements de syntaxe structurale” kitobida Tesnier valentlikni bunday izohlaydi: “ Valentlik verbosentrik nazariyasining asosi”. Ya`ni “Har qanday gap asosida fe`l yotadi”,- deb aytadi. U gapni xuddi teatr dramasi deb aytadi. Bunda fe`l harakat, aktantlar-aktyorlar, sirkonstantlar esa jarayon rivojlanuvchi holatlar hisoblanadi. Aktantlar - bu otlar va ularning ekvivalenti hisoblanadi. Sirkonstantlar esa ravish hisoblanadi. Aktantlar fe`lga teng bo`ysunadilar, ular bir-birini almashtirib turadilar. Shuning uchun Tesnier fe`l aktif yoki passif formada turganligiga qarab an`naviy gap bo`laklaridan, egadan, vositali va vositasiz to`ldiruvchidan qochadi . Aktant 2, aktant 1(ega) ning o`rnini egallashi mumkin. Tesnier ob`yektni shunday izohlaydi.[Tesnier 1988: 118-124].

Shunday qilib o`timsiz fe`l bitta valentlikka, o`timli fe`l esa ikki yoki undan ko`p valentlikka ega. Buni quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin:

1.5-jadval



Valentlik termini kimyo fanidan o`zlashgan bo`lib, u vodorod atomini boshqa elementlar bilan bog`lashga xizmat qiluvchi atomlar sonini anglatadi. Til hodisasining lisoniy mohiyati o`rganilar ekan, til birligining birikuv imkoniyatiga ega bo`lishi va bu imkoniyat tasodifiy emasligi haqida xulosa bildirila boshladi. Shu tariqa tilshunoslikka valentlik, valentlik nazariyasi, lisoniy valentlik va nutqiy valentlik kabi qator atama kirib kela boshladi.

Darhaqiqat, til hodisasida valentlik qonuniyaining mavjudligi dastavval verbosentrizim g`oyasi bilan uyg`un holda tushuntirilgan bo`lsa, XIX asr oxirida boshlab bu sohada jiddiy izlanish yuzaga keldi. Jumladan, A.M. Peshkovskiy asarida fe`l boshqaruvi to`g`risida, Fitrat lingvistik qarashida kesimning markaziy bo`lakligi va gapdagi to`ldiruvchi ishtirokining unga bog`liqsiz masalasi yoritilgan bo`lsa, Fransuz tilshunosi Lucien Tesnier valentlik tushunchasining nazariy asosini ishlab chiqdi.

Sintaktik valentlik bilan ma`noviy valentlik o`zaro nisbiy mutanosiblikda bog`langan bo`ladi, ya`ni undan biri o`zgarsa, ikkinchisi ham o`zgaradi. Masalan

1. Salima kitob yozdi.
2. Salima daftarga yozdi.
3. Salima uchun kitob yozdi.

Yespersen bunday fe'llarni o'timsiz fe`llar deb hisoblaydi.

Zamonaviy tilshunoslari Yu.A.Levitskiy va Yu.V. Shalamov, sintaksis va semantika muammolari bilan shug`ullanib, bu holatda biz bir qancha juft o'timsiz – o`timli fe`llar bilan shug`ullanib, ularning orasidagi rasmiy farqni sof sintaktik deb izohlashadi. [Yu.A.Levitskiy va Yu.V. Shalamov]

A.B. Letuchiy intransitivlikning soddalashtirilgan ta'rifini beradi: Intransitivlik shunday konstruksiyaki to'g'ridan-to'g'ri ob'ekt fe'l bilan ifodalanmagan va bevosita kontekst uni qayta tiklashga imkon bermaydi [Letuchiy 2013: 72]. Shu bilan birga, olim kontekstdan tiklanishi mumkin bo`lgan va shu ob`yektlarni kontekstdan aniqlash mumkin bo`lmagan, qaysi mezonlar orqali ob`yektlarni farqlash kerak degan savolni ochiq qoldiradi.

Tilshunos L.L. Bulanin tranzitivlikni sof sintaktik hodisasining tabiatiga turib oladi: Sintaktik nuqtai-nazardan, o`timli va o`timsiz fe'llar bir-biriga aniq qaramaqashidir. Semantikaga keladigan bo`lsak, bu yerda ular orasidagi yagona farjni o`rnatish mumkin emas [Bulanin 1970: 214 - 215].

Biroq, bunday talqinlar semantik planda hisobga olinmaydi: axir, o`timli fe`lda to`ldirilmagan valentlik - bu, kontent plani nuqtai nazaridan, to'g'ridan-to'g'ri ob'ekt bilan to`ldirilishi mumkin bo`lgan muhim yo`qlikdir.

S.A. Nesterova ingliz va rus va xorijiy tilshunoslikda o`timli fe'llarning mutlaq qo'llanilishi maqolasida [Nesterova 2012] o`timli fe`llarni ob`ektsiz ishlatish holatlarini tahlil qiladi (o'timli fe`llarning mutlaq yoki mutlaq ishlatilishi). O`timli fe`llar o`zining semantik mazmuniga ko`ra sintaktik jihatdan ifodalanmagan bo`lsa ham, qandaydir qo'shimcha elementga, to'g'ridan-to'g'ri predmetga qaratilgan. Shunday qilib, tadqiqotchi tranzitivlikni yo`qotish, mutlaq foydalanish emas degan xulosaga keladi. Tranzitivlikni sof sintaktik talqin qilish xususiyati shundan iboratki, ularning tarafdarlari qurilishning xususiyatlarini fe`l: qurilishda to`g`ridan-to`g'ri ob`ektning yo`qligi fe'lning o`timsiz ekanligini isbotlashdir. Ammo hisobga olingan bo`lsa fe`lning o`zi semantikasiga e`tibor, keyin mutlaq haqida gapirish mumkin o`timli fe`ldan foydalanish, unda ma`lum bir narsaga e`tibor qaratilgan tashqi ifodalanmagan ob`ekt saqlanib qoladi.

### **1.2.3. Transativlikning pragmatik jihatি**

Fe`l o`timliligini o`rganish uchun ma`lum bir tilning materialidan foydalanib ifodalangan olish kerak ifodalovchi. Tilshunos Yu.S. Stepanov tranzitivlik atamasini qamrab oladigan 3 xil faktlar guruhini aniqlaydi. Ushbu faktlarni aniqlashda Stepanov fe`lning ma`nosi va tashqi tomondan ifodalangan ob`ektning mavjudligi / mavjud emasligi. 1) Fe'lning o`timli ma`nosi va tashqi tomondan ifodalangan ob`yekt mavjudligi, ushbu ma`noga mos keladigan ob`ekt (daraxtlarni kesmoq) . 2) Tashqi tomondan ifodalanmagan ob`yekt fe`lning faqat o`timli ma`nosi (u harakat qilyapti). 3) Faqat tashqi tomondan ifodalangan predmetning o`timsiz fe`l ma`nosi oldida (ikki kilometr yurish). O`timsizlik

to`rtinchi holat hisoblanadi: fe`lning o`timsiz ma`nosi tashqi ob`yektning mavjud emasligida [Stepanov 1977:138]. Bu ro`yxatning “simmetriyligiga” e`tibor bermaslik mumkin emas: tadqiqotchi 2 ta parametrni asos qilib oladi- ma`no (fe`l ob`ektga o`tmaydi) va ob`ekt mavjudligi -va ularni birlashtirib, vaziyatlarning 3 o`timli tipini va 1 intransitiv vaziyatlar turini oladi.

I.B. Dolinina tranzitivlik kategoriyasining turli tekisliklarini ajratib beradi. Polireferensial kategoriyasining o`ziga xos xususiyatlari to'g'risida maqolasida (Fenomen tranzitivlik / intansitivlik) [Dolinina 1987] u “Tranzitivlik kategoriyasini tahlil qilish, kamida ikkita turli kategoriyalarni ajratish kerak: leksik o`timlilik va sintaktik o`timlilik. Leksik tranzitivlik vaziyatlarni ko`rsatuvchi usulini fe`l leksikasi orqali o`tkazish uchun javobgardir,” - deb yozadi.

Transitivlikning leksik kategoriyasi bilan bog`langan fe`l leksemaning yashirin xususiyatini aks ettiradi, uning chegaralari sub`yektning harakatini yoki ob`yektga yo`naltirilganligini nomlash qobiliyati ma'lum bir turdagি yoki mavzu doirasidagi yopiq va undan tashqarida emas.

Ushbu semantik mezonga ko`ra, fe`llar ikki kichik sinfga bo`linishi mumkin: o`timli va o`timsiz. Sintaktik tranzitivlik kategoriyasi ham predmet-predikat-obyektni aks ettiradi. I.B. Dolinina transitivlikning leksik kategoriyaning tashuvchisi fe`l degan xulosaga keladi, fe`l leksema kabi, kontekstda ishlatalishiga qaramay, faqat uning ichki xususiyatlari tufayli.

Zamonaviy tadqiqotlar uchun tranzitivlikning boshlang'ich nuqtasi amerikalik tadqiqotchilar Pol Xopper va Sandra Tompson ishi edi. (P. Hopper va S.A. Tompson) “Transitivity in Grammar and Discourse” (Grammatika va diskursda transitivlik). Unda transitivlikni fe`l konstruksiyasi xususiyati sifatida qarash taklifi berilgan.

Xopper va Tompsonning gipotezasi shundan iboratki, unda qarama-qarshi qo`yilgan o`timli - o'timsiz qurilish ikkilik emas, balki asta-sekinlik, ya'ni, fe`l va

konstruktsiyalar ko'proq yoki kamroq o'timli bo'lishi mumkin [Hopper & Tompson 1980].

Shunday qilib, tranzitivlikni tavsiflashning ushbu yondashuvi hodisaning nafaqat semantik tomonini, balki shu hodisa o'timli bo`lishi uchun fe`lning o`zini ham o`z ichiga oladi. Bundan tashqari tilshunoslar Hopper va Tompson transitiv fe`llarning turli xususiyatlari haqida gapirishadi. Gapda to`ldiruvchisiz ishlatiladigan o'timli fe`llar, bundan o`timsiz bo`lib qolmaydi.

### **I bob bo`yicha xulosa**

**1.** Turkiy tillar va ularning tilini o`rganishga qiziqish XI asrdanoq boshlangan. Taniqli olim, S. Mutallibov Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarini tarjima qiladi va bu asarda fe'l to'g'risida mulohaza yuritayotgan o'rirlarda fe`llarning yasalishi, ulardagi zamon, nisbat, o'timli-o'timsizlik kategoriyalari haqida ma'lumot berib o'tganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo`lamiz.

**2.** Bundan tashqari taniqli olim A. Nurmonovning “O'zbek tilshunosligi tarixi” asarida o'zbek tili fe`llarini o`rgangan u haqida asarlar yozgan bir qancha olimlarimizni sanab o'tgan. Chunonchi Xorazmda tavallud topgan Mahmud Zamaxshariy tilshunoslikka oid bir qancha asar yozganligi va “Muqaddimat-ul adab” (“Adabiyotga kirish”) asari besh qismdan iborat bo`lib, uning ikki qismi fe`lga bag`ishlanganligi to`g`risida yozilgan.

**3.** “Abu Nasr Forobiy tilshunoslik haqidagi fikrlarini o`zining “Fanlar tasnifi haqidagi so'z” asarida bayon qilgan. Shu bilan birga ot va fe`llarning grammatik kategoriyalari haqida ham ma'lumot beradi.

**4.** Buyuk mutafakkir, o'zbek adabiy tilining asoschisi va targ'ibotchisi Alisher Navoiy tilshunoslik tarixida ham o'chmas iz qoldirgan ulug' olim hisoblanadi. “Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari “Muhokamat-ul lug'atayn” asarida jamlangan bo`lib, mazkur asarda olim morfologiyaga oid o`z fikrlarni bildirar ekan, asosiy so'z turkumi sifatida fe`llarga murojaat qilgan.

5. XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat so'z turkumlarini, jumladan, fe'l so'z turkumini tadqiq etadi. Fe'lga harakat va holat ifodalovchi turkum sifatida yondashadi.
6. Ayyub G'ulomov, Said Usmonovning, Azim Hojiyev, M. Sodiqova, Sh. Shukurov, S.Akbarov, J.Muxtorov, S.Sultonsaidova, S.MaxmatqulovR.Rasulov, I.Qo`chqortoyev, Yo.Tojiyev kabi taniqli olimlarimiz fe'l, fe'l kategoriyalari haqida o`z ilmiy ishlarini ommaga taqdim etishgan.
7. Fransuz tili o`timli va o`timsiz fe'llarini o`rganish XVIII asrdan boshlab o`rganila boshlangan. Ayniqsa fransuz tilining rivojlanishi uchun tilshunoslikka F.de Sossyur va C. Balli g`oyalari kuchli ta`sir ko`rsatdi. Bundan tashqari taniqli olimlardan Chervel, Grevisse, Gilber Lazard, Wagner et Pinchon, Denis et Sancier-chateau, Wilmet, Riegel, Lucien Tesnier, E. Benveniste va A. Martinet kabi olimlarni sanab o`tishimiz mumkin.
8. Birinchi bobimizda transitivlikning semantik, sintaktik, pragmatik talqinlari haqida so'z yuritilgan.


## **II BOB: Fransuz va o`zbek tillarida o`timli va o`timsiz fe`llarning o`ziga xos xususiyatlari**

### **2.1. Fransuz va o`zbek tillarida o`timli fe`llarning o`ziga xos xususiyatlari**

Fransuz va o`zbek tilida fe'l ish-harakatning bajaruvchisi (subyekti) bilan bajariluvchisi (obyekti) o`rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ish-harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab fe'llar ikki guruhga bo'linadi. 1. O'timli fe'llar. 2. O'timsiz fe'llar.

Fransuz tilida bu quyidagicha ifodalanadi:

2.1-jadval



**Direct****Indirect**

O‘timli-o‘timsizlik avvalo biror grammatik ko‘rsatkich olmagan fe'l leksemaning o‘zidan anglashiladi, harakat bilan ushbu harakat qaratiladigan predmet – vositasiz to‘ldiruvchi orasidagi munosabat asosida belgilanadi. O‘timli yoki o‘timsiz bo‘lish fe'l anglatadigan leksik ma'noga bog‘liq.

Masalan, *tashla-* leksemasi nimanidir bir joydan boshqa bir joyga kuch bilan yo‘naltir-ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibidagi nimanidir semasi bu fe'l leksema o‘timli ekanini ko‘rsatadi. *Yot-* leksemasi ma'lum bir sathni yotiq holatda egalla- ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibida harakat qaratiladigan predmet (vositasiz to‘ldiruvchi) mavjudligini ko‘rsatadigan sema yo‘q, shunga ko‘ra bu leksema o‘timsiz deyiladi.

Ko‘rinadiki, o‘timli-o‘timsizlik biror grammatik ko‘rsatkich olmagan fe'l leksemalarda leksik-semantik hodisa sifatida mavjud. Lekin bunday fe'llarning o‘timli ekani tashqi ko‘rsatkichga ega: bunday fe'lga bog‘lanadigan vositasiz to‘ldiruvchi – tushum kelishigidagi leksema shakl o‘timlilikning tashqi marker vazifasini bajaradi, fransuz tilida “*marquer* - belgilab qo‘ymoq” fe’lini olishimiz mumkin. Demak, o‘timli fe'l leksema biror grammatik ko‘rsatkich olmagan holda *nimani*, *kimni* so‘rog‘iga javob bo‘ladigan vositasiz to‘ldiruvchini boshqaradi, o‘timsiz fe'l leksemada bunday boshqaruv bo‘lmaydi. Ko‘rinadiki, bunday fe'l leksemalarda o‘timli o‘timsizlik sof semantik hodisa emas, balki semantik-sintaktik hodisa.<sup>5</sup>

O‘timli-o‘timsizlik fe'l leksemalarga-gina xos muhim xususiyat bo‘lib, fe'llikka mansub nisbat, orttirma kabi hodisalar o‘timli-o‘timsizlikka asoslanadi. O‘timli fe'l leksema vositasiz to‘ldiruvchidan tashqari vositali to‘ldiruvchini ham boshqarishi

<sup>5</sup> Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiyo`zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006y-159b.

mumkin: *ol- kim kimdan nimani, ber- - kim kimga nimani* kabi. Fe'l leksemaning o'timliligini belgilashda vositali to'ldiruvchining bor-yo'qligi ahamiyatsiz.<sup>6</sup>

O'zbek va fransuz tilida o'timli fe'llar ikkiga bo`linadi :

Vositali to`ldiruvchi qabul qiladigan o'timli fe'llar. Bu fe'llar o`zi bilan to`ldiruvchini ergashtirib keladi va kimni (qui?), nimani (quoi) so`roqlariga javob beradi.

Masalan: Elle surveille *ses enfants* - u bolalarini kuzatyapti. (elle surveille qui ?- u kimni kuzatyapti ?).

J'ai vu *Orlando*- men Orlandoni ko`rdim. (tu as vu qui ?-sen kimni ko`rding ?)  
Les maçons construisent *la maison*- quruvchilar uy qurishyapti. (ils construisent quoi ?- ular nima qurishyapti ?)

Fransuz tilida vositasiz to`ldiruvchi qabul qiladigan o'timli fe'llar doim o`zi bilan à, de, pour, en, vers, par, sur predloglarini ergashtirib keladi.

Masalan : Il téléphone à sa mère tous les dimanches.- U har yakshanba onasiga qo`ng`iroq qiladi.

Il se souvient de son enfance.- U bolaligi haqida eslayapti.

O'zbek tilida o'timli fe`ldan keyin qo`llangan otlar ko`pincha tushum kelishigida qo`llangan bo`ladi. Fransuz tilida kelishik bo`lmaganligi tufayli o'timli fe`ldan so`ng vositasiz to`ldiruvchi bo`lib kelgan ot yoki olmosh predlogsiz qo`llaniladi :

*Nous aimons notre Patrie*.- Biz vatanimizni sevamiz.

*Cet enfant appelle sa mère*- Bu bola onasini chaqiryapti.

Vositali va vositasiz to`ldiruvchili o'timli fe'llar bir – biridan o`zidan keyin predlog olishi yoki olmasligi bilan farq qiladi.

Ya`ni agar ot to`ldiruvchi bo`lib kelsa vositasiz to`ldiruvchili o'timli fe'llar, Agar kesim to`ldiruvchi bo`lib kelsa vositasiz to`ldiruvchili o'timli fe'llar bo`ladi.

---

<sup>6</sup> Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiyo`zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006y-160b.

Masalan: Pierre aime *Jacqueline*- Pier Jaklinni yaxshi ko`radi. Bu gapda Jacqueline vositasiz to`ldiruvchili o`timli fe`l bo`lib kelyapti.

Pierre pense à *Jacqueline*- Pier Jaklin haqida o`ylayapti. Bu gapda Jaklin vositali to`ldiruvchili o`timli fe`l bo`lib kelyapti.

Bundan tashqari ba`zi fe`llar gapda bir vaqtning o`zida ham vositali ham vositasiz to`ldiruvchi bo`lib kelishi mumkin.

Masalan : Le commerçant vend des souvenirs aux touristes- savdogar turistlarga suvinirlar sotyapdi.

O`timli fe`llar haqida fransuz tilida shunday ta`rif berilgan : « Les verbes transitifs directs qui se forment avec un COD. Et les verbes transitifs indirects qui se forment avec un COI » - « O`zidan keyin vositasiz to`ldiruvchi qabul qiladigan fe`llar va o`zidan keyin vositali to`ldiruvchi qabul qiladigan fe`llar. »

Les verbes doublement transitifs qui se forment avec un COD et un COS---  
bir vaqtning o`zida ham vositasiz va vositali to`ldiruvchi qabul qiladigan fe`llar  
Tolstoi lit le journal. - Verbe transitif, COD

Louise pense à son amoureux. – Verbe transitif, COI

Simon donne une fleur à sa mère. – Verbe transitif, COD – COI.

Fransuz tilida ba`zi harakat fe`llari o`tgan tugallangan zamonda (passé composé) être yordamchi fe`li bilan tuslanadi va gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi. Lekin avoir fe`li bilan tuslanganda uning ma`nosи o`zgaradi va gapda o`timli fe`l bo`lib keladi.

**Masalan :** Sortir (vi) de la classe. Sinfdan chiqmoq.

*Je suis sortie de la classe- men sinfdan chiqdim.*

*Sortir (vt) un crayon. Qalamni chiqarmoq.*

*J'ai sorti un crayon- men qalamni chiqardim.*

*Descendre (vi) du tram. Tramvaydan tushmoq.*

*Je suis descendue du tram- men tramvaydan tushdim.*

*Descendre (vt) la valise. Yukni tushirmoq.*

*J`ai descendu la valise- men yukni tushirdim.*

Buni quyidagicha ifodalash ham mumkin:

Être



**Verbes → intransitifs**

Je suis montée à la Tour Eiffel

Avoir



**verbes → transitifs**

J`ai monté les bagages au 2 etage

Elle est descendue très vite

Elle a descendu mes affaires

Anne est sortie avec ses parents

J`ai sorti de l`argent de mon sac

Ils sont rentrés chez eux à minuit

Ils ont rentré le velo dans le  
garage

Elle est retournée dans son pays

Elle a retourné la crèpe

Nous sommes passés par Lyon

Nous avons passé la frontière

O`zbek tilida o`tgan tugallangan zamonda yordamchi fe`llar yetakchi fe`l bilan asosan -(i)b yoki -a, -i ravishdosh yasovchilar yordamida birikadi va gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi. Bunga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.<sup>7</sup>

*Borib keldi, kelib tushdi, ketib qoldi.*

O`zbek tilida qo`shma fe`llarda o`timli va o`timsizlik ma`nosi yetakchi qismga qarab bo`linadi. Masalan: *aytib berdi, yozib chiqdi, ko`ra boshladi.* Qo`shma fe`llarda *aytib, ko`ra, yozib* yetakchi qismning o`timli ekanligi shu

<sup>7</sup> M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva. Ona tili. Toshkent: “Iqtisod - Moliya” – 2007 yil. 143-b.

fe`llarning o`tmli ekanligini ko`rsatadi. Aksincha, qo`shma fe`llarning yetakchi qismi o`timsiz fe`ldan bo`lsa, butun qo`shma fe`l o`timsiz bo`ladi: *o`sə boshladı, quvonib ketdi, kulib qo`ydi* kabi.<sup>8</sup>

Ma`lumki, o`timli-o`timsizlik turkiy tillarda, xususan, o`zbek tilida lug`aviy xarakterga ega. Tadqiqotchilar uning dastlab sintaktik tabiatga ega bo`lganini, keying davrda lug`aviy xususiyat kasb etganligini ta`kidlashadi.<sup>9</sup>

Olimlar o`timli va o`timsiz fe`llarni ma`noviy sintaktik xossasiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`lishadi :

## 2.2-jadval

Fe`l	
O`timli	O`timsiz
Refleksiv	faol
Norefleksiv	nofaol
Natijali	
Natijasiz	

O`timli refleksiv fe`l adresat (harakat yo`nalgan) vositali to`ldiruvchisiga ega bo`lman, bajaruvchisiga qaytuvchi harakatni ifodalaydigan fe`ldir: *kiy, ich, bil, eshit, ko`r* kabi. Bunda fe`l quyidagicha izohlanadi:

[Bajaruvchi+fe`l+ob`yekt tushum kelishigi]

Fransuz tilida

(S + Vt + Od)

*Pierre à une sœur; Il aime sa sœur*

shaklida ifodalanadi.

---

<sup>8</sup>Hamroyev M. Muhammedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007 y-126 b.

<sup>9</sup> Zamonaviy o`zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). -T.:MUMTOZ ZO`Z, 2008. 292-b.

O`timli norefleksiv fe`l ham vositali, ham jo`nalish kelishigidagi adresat vositasiz to`ldiruvchisiga ega bo`lgan fe`ldir: *ol, ber, ek, qil* kabi.

[Bajaruvchi+fe`l+ob`yekt tushum kelishigi+ob`yekt jo`nalish kelishigi adresat]

Fransuz tilida:  $S + V_i + O_i$

*Il donne un livre à son ami*

O`timli natijali fe`l ob`yektni fizik o`zgartirish (shakl xususiyatini o`zgartirish) harakatini ifodalaydi: *yoz, buz, yor, bo`ya* kabi.

[Bajaruvchi+fe`l+ob`yekt tushum kelishigi+ob`yekt jo`nalish kelishigi]

$S + V_i + O_d + O_i$

Fransuz tilida : *detruir, construir, peindre.*

O`timli natijasiz fe`lga ob`yektni o`zgartirishga qodir bo`lmaan harakatni ifodalovchi va

[Bajaruvchi+fe`l+ob`yekt adresat jo`nalish kelishigi +ob`yekt tx]

Bu holatda voqelanadigan *bor, sot, uzat tipidagi* fe`llar kiradi.

Fransuz tilida esa bu quyidagicha ifodalanadi :

[S+Vt+Oi]

*Il va à Paris*

## 2.2. Fransuz va o`zbek tillarida o`timsiz fe`llarning o`ziga xos xususiyatlari

Fe`l anglatgan harakat va holatning ob`yektga munosabati turlicha. Bir xil fe`llar harakatning biror narsaga o`tganligini bildiradi, predmet-ob`yekt esa tushum kelishigidagi ot bilan ifodalanadi: *gazetani o`qidim, kitobni olding* kabi. Ba`zi fe`llar esa harakatning predmet-ob`yektga o`tmaganligini bildiradi, ular tushum kelishigidagi so`zni boshqarib kelmaydi: *u yugurdi, bola uxladi, Nilufar zavqlanib kuldil* kabi.

Ikkala tilda ham harakatni (venir-kelmoq, aller-bormoq, arriver-yetib kelmoq, tomber-yiqilmoq.), holatni (naitre-tug`ilmoq, mourir-o`lmoq, s`amuser-quvnamoq, se coucher-uxlamoq) anglatadigan fe`llar va shaxssiz fe`llar o`timsiz fe`llar (verbes intransitifs) hisoblanadi. Masalan fransuz tilida buni quyidagicha ifodalash mumkin:

-Demain, des l`aube, je *partirai*. Vois-tu, je sais que tu *m`attends*. Je penserai à toi toute la journee. (Victor Hugo).

Victor Gyugoning she`ridan olingan parchadagi *partir* ya`ni jo`nab ketmoq fe`li o`timsiz fe`l bo`lib kelyapti.

-Do`konga chiqqan edilar. Iftorga kelurlar. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar”)

“Yulduzli tunlar” romanidan olingan parchamizda *chiqmoq* va *kelmoq* fe`llari o`timsiz fe`l bo`lib kelyapti.

*Il pleut-yomg`ir yog`yapti gapimizda pleuvoir – yomg`ir yog`moq fe`li o`timsiz bo`lib kelyapti.*

Yuqorida aytib o`tganimizdek fransuz tilida ba`zi harakat fe`llari o`tgan tugallangan zamonda (passé composé) *être* yordamchi fe`li bilan tuslanadi va gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi.

**Masalan :** *Sortir (vi) de la classe.* Sinfdan chiqmoq.

Je suis *sortie de la classe*- men sinfdan chiqdim.

*Descendre (vi) du tram.* Tramvaydan tushmoq.

Je suis *descendue du tram*- men tramvaydan tushdim.

O`zbek tilida o`tgan tugallangan zamonda yordamchi fe`llar yetakchi fe`l bilan asosan -(i)b yoki -a, -i ravishdosh yasovchilar yordamida birikadi va

gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi. Bunga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.<sup>10</sup>

*Borib keldi, kelib tushdi, ketib qoldi.*

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, olimlar o`timsiz fe`llarni ma`noviy sintaktik xossasiga ko`ra ikki guruga bo`lishadi : faol va nofaol o`timsiz fe`llar.

O`timsiz faol fe`l bajaruvchi tomonidan his qiluvchi harakat, shuningdek, ruhiy holat fe`li hisoblanadi. U, asosan, ikki kengaytitiruvchili bo`lib *kishna, gujurla, yugur, yo`rg`ala* kabi.

[Bajaruvchi +Fe`l]

Fransuz tilida :

[S+V]

Pierre court.

va *yot, tur, ket, qoch, yasha, ranji, kul, yig`la, ishon, sig`in.*  
[Bajaruvchi + F`l + Ochiqish/jo`nalish/o`rin-payt kelishigi]

qolipida voqelanadi.<sup>11</sup>

Fransuz tilida : *vivre, habiter, pleurer, sourir, croire, fuir, s`en aller.*

O`timsiz nofaol fe`l biror tashqi kuch ta`sirisiz bajaruvchida yuz beruvchi va unda qandaydir o`zgarish hosil qilish harakatini ifodalovchi fe`l bo`lib *quri, ivi, qizar, oz, qayna,*

[Бажарувчи + Феъл]

qolipida voqelanadi. Bu, fe`l asosan bir kengaytiruvchi.

[S+V]

---

<sup>10</sup> M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva. Ona tili. Toshkent: “Iqtisod - Moliya” – 2007 yil. 143-b.

<sup>11</sup> Zamonaviy o`zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). -T.:MUMTOZ ZO`Z, 2008. 293-bet.

Fransuz tilida: *la terre tourne.*

Ko`rinib turibdiki o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarning o`xshashlik tomonlari juda ko`p. Buni quyidagi jadvallarda ham ko`rishimiz mumkin.

Fe'l ko'p ma'noli bo'lganda, u bir ma'nosiga ko'ra o'timli, boshqa ma'nosiga ko'ra o'timsiz bo'lishi mumkin. **Masalan:** *kitob o'qiydi - o'timli, maktabda o'qiydi - o'timsiz.*<sup>12</sup>

Fransuz tilida : On finit le travail – Le travail finit.

Il descend - Il descend ses bagages.

Fe'llardagi o'timli-o'timsizlik 2 xil ifodalanadi.  
1. **Leksik** - semantik usul. Bunda fe'llar o`z leksik ma`nosiga ko'ra biror affiks olmagan, hech qanday shakl o`zgarishisiz (o`zak-negiz holida) o'timli yoki o`o'timsiz bo`ladi. Masalan: *ol, ko'r, kuy, ich, saqla, so'ra, och, yech.*

Odatda, quvnamoq, sevinmoq, erinmoq, uxlamoq kabi holatni anglatadigan fe'llar, yugurmoq, yurmoq, yetmoq kabi harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz bo`ladi. Biz buni yuqorida aytib o'tgan edik.

2. **Morfologik** usul. O'timli-o'timsizlikning morfologik usul bilan ifodalanishida fe'l nisbatini yasaydigan qo'shimchalar (o`zlik, majhullik, orttirma nisbat qo'shimchalari) o'timli-o'timsiz fe'llarni belgilab beradi. Fe'l o`zak-negizga nisbatan qo'shimchalari qo'shilganda, fe`lning o'timli-o'timsizligi quyidagicha yuz beradi: 1) o'zlik va majhullik nisbat qo'shimchalari o'timli fe`lni o'timsiz fe`lga aylantiradi: so`radi-o'timli fe'l, so`raldi-o'timsiz fe'l, ko`rdi-o'timli fe'l, ko`rindi – o'timsiz fe'l. So`radi o'timli fe`liga qo'shilgan –l majhullik nisbat qo'shimchasi, ko`rdi o'timli

---

<sup>12</sup> Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: "iqtisod – moliya" 2007 y-126 b.

fe`liga qo`shilgan -in o`zlik nisbat qo`shimchasi so`radi, ko`rdi fe`llarini o`timsiz fe`llarga aylantirdi .

2) orttirma nisbat yasovchi qo'shimchalar, aksincha , o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: kuldio`timsiz fe`l, kuldirdio`timli fe`l, yurdi-o`timsiz fe`l, yurgizdi-o`timli fe`l, uxladi - o`timsiz fe`l, uxlatdi-o`timli fe`l.

3) orttirma nisbat qo'shimchalari orqali o`timli fe`ldan yana o`timli fe`l hosil qilinadi: esladi- o`timli fe`l, eslatdi- o`timli fe`l, ichdi- o`timli fe`l, ichirdi-o`timli fe`l.

Nisbat paradigmasi va unga yondosh hodisalarni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin.

### 2.3-jadval

Shaxsli fe'l shakllari			Shaxssiz fe'l shakllari	
Nisbat paradigmidan xoli shakllar	Nisbat paradigmasi			
	Aniq nisbat	Majhul nisbat		
-	1) o'timli fe'l leksema: <i>yasa+ · · ·-</i>  <i>beza+ · · ·-</i>	<i>yasa + l</i> <i>beza</i> <i>+ l-</i>	-	
-	2) o'timli fe'l leksema + orttirma shakli (qayta o'timli fe'l shakli): - <i>yasa</i> + <i>t</i> <i>+ · · ·-</i>	<i>yasa- + t + il-</i>	-	
-	3) o'timsiz fe'l leksema + orttirma shakli (o'timlilashgan fe'l): <i>yur + giz + il -</i>		-	

	- <i>yur</i> + <i>giz</i> + . . . -		
	-      4) o‘zlik shaklidagi fe'l + orttirma shakli (o‘timlilashgan fe'l:)  <i>yuv + in + tir</i> .	-	<i>yuv+in+tir+il-</i>
	-      5) birgalik shaklidagi fe'l + orttirma shakli (o‘timlilashgan fe'l)  <i>uchra + sh + tir-</i>	-	<i>uchra+sh+tir+il</i>
1) o‘timsiz fe'l leksema: <i>bor-,</i> <i>kel-,</i> <i>foydalanbirlas</i> <i>h-</i>	-	-	<i>bor + il-,</i> <i>kel + in-,</i> <i>foydalan+ilbirlash</i> <i>+ il-</i>
2) o‘timli fe'l leksema + o‘zlik shakli (o‘timsizlashgan fe'l):  <i>yuv + in-</i>	-	-	<i>yuv + in + il-</i>
3) o‘timli fe'l leksema + birgalik shakli	-	-	

(o‘timsizlashgan fe'l): <i>uchra + sh-</i>			<i>uchra+sh+il</i>
---	--	--	--------------------

Fransuz tilida :

#### 2.4-jadval

	Semantik o`timlilik (to`ldiruvchini shartliligi)	Predlogsiz konstruksiya
(1) Il marche dans la rue	–	–
(2) Il travaille la nuit	–	+
(3) Il succède à son père	+	–
(4) Il prend le livre	+	+

Birinchi ikkita strukturada berilgan fe`llar o`timsiz fe`llar hisoblanadi, ikkinci holatda gapning ikkinchi darajali bo`lagi *la nuit* fe`lga predlogsiz qo`shilgan bo`lsa ham gapda payt holi bo`lib, to`ldiruvchi bo`lib emas. (cp.: Il travaille le fer). To`rtinchi holatda fe`l o`timli bo`lib kelyapti. Uchinchi gapimizda to`ldiruvchi gapning semantik jihatdan majburiy, lekin konstruksiyada predlog ishlatilgan. Fransuz grammatik an`analari bu fe`llarni ham o`timli deb qaraydi, farqli ravishda vositasiz o`timli fe`l (3) (verbes transitifs indirects) va vositali-o`timli fe`l (4) (verbes transitifs directs). vositasiz o`timli fe`l à predlogi orqali ishlatiladi (obéir à, plaisir à; accéder à, nuire à, succéder à) va de (douter de, juger de, triompher de). Ular semantik jihatdan

vositali-o`timli fe`l bilan (to`ldiruvchi bilan yaqin bog`lanish) bog`lanadi va sintaktik jihatdan (to`ldiruvchi bilan o`rin almashish). O`rin almashadi.<sup>13</sup>

Fe`lning o`timliligining o`zgarishi okkazional bo`lishi mumkin.

*Vi→Vt* ning transformatsiyalanishi. a) «ichki to`ldiruvching» ishlatilishi, semantik jihatdan fe`lning takrorlanishi: **vivre** sa **vie**, **dormir** son dernier **sommeil**, **pleurer** ses **larmes**, **aller** son **chemin**. ; 6) *Vt* ning vositali to`ldiruvchi bilan ishlatilishi ma`no jihatdan chuqur o`zgarishlar bo`lmasligi mumkin. Taqqoslaymiz: og`zaki nutqda: démarrer l'affaire; Il a débuté la saison avec une nouvelle pièce; écrouler les cours du marché.

*Vt* ning transformatsiyalanishi: *Vt→Vi* holati tez-tez kuzatilib turadi. Har qanday o`timli va o`timsiz fe`l sifatida ishlatilishi mumkin, agar to`ldiruvchi aniq ob`yektni ifodalasa, va aksincha, noaniq umumlashtirilgan ob`yektni bildirsa. Bularni quyidagi holatlarda ko`rishimiz mumkin.

a) sub`yekt saqlanib qoladi. Ob`yekt vaziyatning aniqligi sababidan tushirib qoldiriladi. Bular so`zlashuv nutqining ko`p formulalari shunday. Masalan: Vous prenez? Savoli (aniq bo`lgan narsa haqida); Vous changez? (transportda). Fe`lning ma`nosini torayishi mumkin.

b) sub`yekt saqlanib qoladi.. Ob`yekt vaziyatning noaniqligi sababidan tushirib qoldiriladi. Masalan: Il fume; Il danse (umuman); Ce chien mord; Une longue maladie affaiblit. Fe`l sub`yektning doimiy mashg`ulotini, qobiliyatini, xususiyatini ifodalovchi umumiylar ma`noga ega bo`ladi. *Vt* bu mutlaq qo`llanishda fe`l ifodasi bilan sinonim hisoblanadi. : Il dessine (Il fait des dessins); Il étudie (= Il fait ses études) yoki ot-kesimda: Il aime (= Il est amoureux). Ob`yektsiz qo`llanishda *Vt* harakatning o`ziga urg`u berilganda kuzatiladi. (C'est lui qui **décide**), umumiylar xarakterning bayonlarida : Qui a des oreilles, **entend**. Ayniqsa nutq fe`llari *Vt* va *Vi* sifatida tez-tez

---

<sup>13</sup> V.G.Gak “Teoricheskaya grammatika fransuzkogo yazika” Yantarniy skaz. 1997 g. 145-s

foydalilaniladi.(murmurer – murmurer quelques mots), ovqatlanishda (manger– manger une pomme), amalga oshishini ifodalaydi (chanter – chanter une chanson);

c) sub`yekt ikki kostruksiyada har xil bo`lib, ular o`rtasidagi munosabatlar aktiv/passiv munosabatga o`xshaydi: ob`yekt  $V_t$  oldida chiqadi xuddi sub`yekt  $V_i$  ( $N + V_t + N_1 \leftrightarrow N_1 + V_i$ ) *yonida chiqqaniday*. Odatda sub`yekt  $V_t$  yonida jonsiz bo`ladi,  $V_i$ — jonsiz bo`ladi.: Il brûle le papier  $\leftrightarrow$  Le papier brûle;

Le soleil brunit le visage  $\leftrightarrow$  Le visage brunit au soleil; On continue le travail  $\leftrightarrow$  Le travail continue. Fransuz tilida bunga o`xhash fe`llar 100 dan ortiq; ularni ba`zan simmetrik yoki teskarisi deb atashadi реверсивными [147]; «simmetrik »atamasi bu holatda o`zaro harakat fe`llariga nisbatan qo`llaniladi: Pierre a rencontré Jean  $\leftrightarrow$  Jean a rencontré Pierre.

d) sub`yekt  $V_t$   $V_i$  dan farq qiladi, va sub`yekt  $V_i$  yonida ob`yekt bilan mos kelmaydi  $V_t$  ( $N + V + N_1 \leftrightarrow M, + V_2$ ) yonida. Ko`pincha jonli sub`yekt  $V_t$  yonida va jonsiz  $V_i$  yonida kuzatiladi. *Aynan shu holatda semantik farqlar eng muhim hisoblanadi*. Taqqoslasmiz: Pierre fume une cigarette  $\rightarrow$  Le volcan fume; Le tailleur l'a bien habillé  $\rightarrow$  Ce costume habille bien; Il chasse le lièvre  $\rightarrow$  Les roues arrière de la voiture ont chassé.

Valentlikning o`zgarishining sintaktik usulining keng qo`llanilishi fe`lning o`timlilik qobiliyatini o`zgarishining muhim qulayligini ko`rsatadi. O`timsizlikning ifodalashning turli usullari- o`timsiz fe`l, passif va pronominal shakllar sinonim sifatida harakat qilishi mumkin. Ular orasidagi ma`no farqini aniqlash ba`zan qiyin va grammatiklar tomonidan doimiy tahlil mavzusi bo`lib qoladi.

Taqqoslasmiz: La glace a gelé, la glace s'est gelée, la glace est gelée; il a avancé, il s'est avancé, il est avancé.

O`timlilikni ifodalashning yana ikki usuli ham raqobatlashadi : fe`lning ob`yekt tarzida ifodalaniishi va sabab konstruksiyasi.

Taqqoslasmiz: Il faut **fondre** du beurre va **Faites fondre** du beurre. Bu shuni ko`rsatadiki, fransuz tilidagi transitivlik va intranzitivlik o`rtasida chegaralari juda harakatchan, bu qarama-qarshilik o`z ma`nosini o`zgartirmasdan bir qator fe`llarda neytrallashadi ikkala konstruksiyada ham qo`llanilishi mumkin.

## II bob bo`yicha xulosa

1. Ushbu bobda fransuz va o`zbek tili o`timli va o`timsiz fe`llarining xususiyatlari haqida ma`lumot berilgan. o`timli-o`timsizlik biror grammatik ko`rsatkich olmagan fe'l leksemalarda leksik-semantik hodisa sifatida mavjud bo`lib, lekin bunday fe'llarning o`timli ekani tashqi ko`rsatkichga ega: bunday fe'lga bog`lanadigan vositasiz to`ldiruvchi – tushum kelishigidagi leksema shakl o`timlilikning tashqi marker vazifasini bajaradi (fr. *marquer* - belgili qilish). Demak, o`timli fe'l leksema biror grammatik ko`rsatkich olmagan holda *nimani*, *kimni* so`rog`iga javob bo`ladigan vositasiz to`ldiruvchini boshqaradi, o`timsiz fe'l leksemada bunday boshqaruvi bo`lmaydi. Ko`rinadiki, bunday fe'l leksemalarda o`timli - o`timsizlik sof semantik hodisa emas, balki semantik-sintaktik hodisa. O`timli-o`timsizlik fe'l leksemalarga-gina xos muhim xususiyat bo`lib, fe'llikka mansub nisbat, orttirma kabi hodisalar o`timli-o`timsizlikka asoslanadi. O`timli fe'l leksema vositasiz to`ldiruvchidan tashqari vositali to`ldiruvchini ham boshqarishi mumkin.

2. Fransuz tilida ba`zi harakat fe`llari o`tgan tugallangan zamonda (passé composé) être yordamchi fe`li bilan tuslanadi va gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi. Lekin avoir fe`li bilan tuslanganda uning ma`nosini o`zgaradi va gapda o`timli fe`l bo`lib keladi.

3. O`zbek tilida o`tgan tugallangan zamonda yordamchi fe`llar yetakchi fe`l bilan asosan -(i)b yoki -a, -i ravishdosh yasovchilar yordamida birikadi va gapda o`timsiz fe`l bo`lib keladi.

4. O`timli refleksiv fe`l adresat (harakat yo`nalgan) vositali to`ldiruvchisiga ega bo`limgan, bajaruvchisiga qaytuvchi harakatni ifodalaydigan fe`ldir.

O`timli norefleksiv fe`l ham vositali, ham jo`nalish kelishigidagi adresat vositasiz to`ldiruvchisiga ega bo`lgan fe`ldir. O`timli natijali fe`l ob`yektni fizik o`zgartirish (shakl xususiyatini o`zgartirish) harakatini ifodalaydi. O`timli natijasiz fe`lga ob`yektni o`zgartirishga qodir bo`lmaan harakatni ifodalovchi.

**5.** O`timsiz faol fe`l bajaruvchi tomonidan his qiluvchi harakat, shuningdek, ruhiy holat fe`li hisoblanadi. O`timsiz nofaol fe`l biror tashqi kuch ta`sirisiz bajaruvchida yuz beruvchi va unda qandaydir o`zgarish hosil qilish harakatini ifodalovchi fe`l.

### **III BOB: Fransuz va o`zbek tillari o`timsiz fe`llarning tipologik tahlili**

#### **3.1. Fransuz va o`zbek tillarida o`timli fe`llarning tipologik tahlili**

Fe`l boshqa so`z turkumlariga qaraganda turli xil kategoriyalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Fransuz va o`zbek tillarida fe`l grammatik kategoriyalari haqida yuqorida aytib o`tdik, quyida har ikkala tillarda o`timli va o`timsiz fe`llarning bir-biridan farqli tomonlarini, ba`zan o`xshashlik tomonlarini ham kuzatishimiz mumkin. Hozirgi o`zbek tilida fe`lga xos grmmatik kategoriyalar quyidagilarni tashkil etadi: *Daraja*, *bo`lishli - bo`lishsizlik*, *mayl*, *zamon*, *shaxs - son*, o`timli-o`timsizlik.<sup>14</sup>

Fe`ldan anglashiladigan ma`noning boshqa predmetga qaratilganligini biror ob`ektga ko`chganligini ko`rsatish va shu harakatning yuzaga kelishi uchun boshqa predmetning ishtirok etishiga qarab fe`llar o`timli (*les verbes transitifs*) va o`timsiz (*les verbes intransitifs*) fe`llarga bo`linadi.

Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o`tganligini (vositasiz to`ldiruvchiga), ta`sir qilishini bildiradigan fe`llar o`timli fe`llar (*verbes transitifs*) deyiladi. Bunga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

Fransuz tilida : *écrire, aimer, acheter.*

<sup>14</sup> Ўзбек тили грамматикаси . Том 1 Морфология. - Т., 1966 . 445 б

O`zbek tilida : *keltirdi* (*nimani?*), *o`ydi* (*nimani?*), *kesdi* (*nimani?*), *uzdi* (*nimani?*).

Bunda harakat ***nimani?*** so‘rog‘iga javob bo‘ladigan otga to‘liq o‘tadi.

Fe’l chiqish kelishigidagi otga bog‘langanda harakat qisman otga o‘tishi mumkin: *uzumni* *yeng –uzumdan* *yeng*, *nonni oling – nondan* *oling*, *qovunni kes – qovundan* *kes*.

O‘timli o‘timsizlik fe’lning mohiyatida, lisoniy tabiatli bo`lishi ham, grammatik shakl vositasida hosil qilinishi ham mumkin. Masalan, *uxla*, *yig`la*, *bor*, *ket*, fe’lida o ‘timsizlik ma’nosи fe’lning o ‘zak-negizidan anglashiladi va u lisoniy tabiatli. *Yuvinmoq*, *sevinmoq*, *burilmoq*, *qirilmoq* fe’lidagi o‘timsizlik esa nutqiy, grammatik vosita yordamida vujudga kelgan.

O‘timli fe`l tushum kelishigidagi so`zni boshqarib keladi, biror predmetga o`tgan harakatni, predmetga qaratilgan va unda biror o`zgarish yuzaga keltiradigan harakat va holatni bildiradi : *U qiynalib hovliga chiqishi bilan tog` tomondan esayotgan tong shabadasi*, *yuzini sochlarini silab*, *kipriklarini yaladi*. (I.R.)

Quyida Fransuz va o`zbek tilida o‘timli fe`llarning ro`yxatini keltirib o`tamiz:

### 3.1-jadval

<b>Fransuz tilida o`timli fe`llar ro`yxati .( vositasiz to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar) VERBES + CVD (transitifs directs) : quoi ? qui ?</b>		
abréger qqch	effrayer qqn	prétendre qqch
accuser qqn	embrasser qqn	produire qqch
acheter qqch	empêcher qqn/qqch	projeter qqch
achever qqch	employer qqch	prononcer qqch
agrandir qqch	ennuyer qqn	protéger qqn/qqch
aider qqn	entendre qqn/qqch	quitter qqn/qqch
aimer qqn/qqch	épeler qqch	ranger qqch
annoncer qqch	espérer qqch	se rappeler qqn/qqch
apercevoir	essayer qqch	reconnaître qqn/qqch

qqn/qqch	finir qqch	regarder qqn/qqch
appeler qqn	gagner qqch	remplacer qqn/qqch
applaudir	guérir qqn	remplir qqch
qqn/qqch	interrompre qqn/qqch	rencontrer qqn/qqch
appuyer qqn/qqch	jeter qqch	rentrer qqch
arrêter qqn/qqch	juger qqn/qqch	envoyer qqn/qqch
asseoir qqn	laisser qqn/qqch	répandre qqch
attendre qqn/qqch	lever qqch	réparer qqch
avertir qqn	manger qqch	retourner qqn/qqch
bâtir qqch	mener qqn/qqch	réussir qqch
cacher qqn/qqch	mettre qqch	rincer qqch
changer qqn/qqch	monter qqch	rompre qqch
chanter qqch	mordre qqn	saisir qqch
chercher qqn/qqch	négliger qqn/qqch	semer qqch
choisir qqn/qqch	oublier qqn/qqch	sentir qqch
commencer qqch		

## 3.2-jadval

<b>O`zbek tilida o`timli fe`llar ro`yxati .(vositasiz to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar)</b>		
So`ramoq	emoq	bezamoq
So`roqlamoq	uzatmoq	urmoq
So`rattirmoq	his qilmoq	turtmoq
quvontirmoq	anglamoq	tepmoq
joylashtirmoq	cho`zmoq	ulashmoq
gaprmoq	sevmoq	ajratmoq
bermoq	tuymoq	sindirmoq

## 3.3-jadval

<b>Fransuz tilida o`timli fe`llar ro`yxati (vositali to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar) VERBES + CVI (transitifs indirects) : à qui ? de qui ? CVI = Gprép</b>		
apparaître à qqn applaudir à qqch arriver à qqch	penser à qqn/ à qqch plaire à qqn réfléchir à qqch	sourire à qqn succéder à qqn téléphoner à qqn

correspondre à qqch jouer à qqch mentir à qqn nuire à qqn obéir à qqn	renoncer à qqch revenir à qqn / à qqch sembler à qqn songer à qqn / à qqch souffrir de qqch	s'apercevoir de qqch avoir besoin de qqn / de qqch avoir honte de qqn / de qqch
---	---	---

## 3.4-jadval

<b>O`zbek tilida o`timli fe`llar ro`yxati .(vositali to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar)</b>		
Qarask chalmoq	yugurmoq	yoqmoq
Yetib kelmoq	bormoq	qochmoq
O`ynamoq	kulmoq	Qaram bo`lmoq
aldamoq	kuzatmoq	Ta`kidlamoq
O`ylamoq	Muhtj bo`lmoq	Qo`ng`iroq qilmoq
kuyinmoq	qaytarmoq	azoblanmoq
chopmoq	qaytmoq	charchamoq

## 3.5-jadval

<b>Ham vositasiz ham vositali to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar VERBES + CVD + CVI (transitifs directs et indirects) : quoi et à qui ? à qui et quoi ? Souvent de la forme : GN + GPrép</b>		
accuser qqn de qqch acheter qqch à qqn annoncer qqch à qqn apporter qqch à qqn apprendre qqch à qqn avertir qqn de qqch avouer qqch à qqn cacher qqch à qqn	exiger qqch de qqn expliquer qqch à qqn faire qqch à qqn féliciter qqn de qqch jeter qqch à qqn laisser qqch à qqn disposer de qqch s'occuper de qqn / de	passer qqch à qqn permettre qqch à qqn présenter qqch à qqn prêter qqch à qqn promettre qqch à qqn raconter qqch à qqn rappeler qqch à qqn recevoir qqch de qqn

chanter qqch à qqn crier qqch à qqn défendre qqch à qqn demander qqch à qqn devoir qqch à qqn dire qqch à qqn donner qqch à qqn écrire qqch à qqn envoyer qqch à qqn	qqch se réjouir de qqch se souvenir de qqn / de qqch lire qqch à qqn menacer qqn de qqch montrer qqch à qqn offrir qqch à qqn pardonner qqch à qqn	remercier qqn de qqch rendre qqch à qqn répéter qqch à qqn répondre qqch à qqn servir qqch à qqn souhaiter qqch à qqn tendre qqch à qqn vendre qqch à qqn vouloir qqch de qqn
--	---	---

AUTRES VERBES AVEC AUTRE PREPOSITION-Fransuz tilida boshqa predlog qabul qiladigan fe`llar.

*remplacer (par), échanger (contre), jeter, placer, poser (sur).*

3.6-jadval

<b>Ham vositasiz ham vositali to`ldiruvchi talab qiladigan fe`llar</b>		
ayblamoq	bermoq	tilamoq
gapirmoq	yozmoq	Sotmoq
Cho`zmoq	yubormoq	Taklif qilmoq
Kechirim so`ramoq	Ko`rsatmoq	Xohlamoq
kuylamoq	Ruxsat bermoq	Tahdid qilmoq
Band bo`lmoq	tabriklamoq	Talab qilmoq
Sotib olmoq	tushuntirmoq	tanishtirmoq

Fransuz tilidagi o`timli fe`llarning ayrimlari o`zbek tiliga tarjima qilinganda o`timli fe`l bo`lmaslig mumkin.

Je regarde le tableau- men doskaga qarayapman.

Nous aidons notre mère- biz onamizga yordam beryapmiz

J'admire ce beau tableau- bu chiroyli rasmdan men hayratdaman.

O`timli fe`llar morfologik belgiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: o`timli-orttirma o`timli fe`llar. O`zlik-o`timli fe`llar. O`zlik-o`timli fe`llar- bu fe`lning o`zak-negizga qo`shimchalar qo`shiladi. Masalan: yoz-moq, o`qi-moq, tot-moq. Hosilali va hosilasiz. Hosilasiz ot-kesim -la affiksi orqali yasaladi ba`zida -ar affiksi orqali ham yasalishi mumkin : -a,- ay, -sira, -si. Murakkab fe`llar yordamchi fe`llardan yasalgan fe`llar qil-moq, et-moq, ayla-moq. Semantik nuqtai nazardan ot-kesim qismida, o`timli va o`timsiz fe`llarni hosil qiladi.

Aytigarlardan ma`lum bo`ladiki , yuqorida aytib o`tilgan fe`lning o`timliligi o`zak bilan bo`g`liq emas.

Orttirma –o`timli fe`llar maxsus affiks orqali yasaladi, bunda o`timsiz fe`llar o`timli fe`lga aylanadi. O`l-moq, o`l-dir-moq. O`timli fe`llar ikki, uch marotaba o`timli bo`ladi. *O`qi-moq, o`qi-t-moq.* Bu misolimizda biror kishini biror ish qilishga majburlash, undash. Bu tipdagi fe`llarga hamma orttirma nisbatdagi fe`llar kiradi.

O`timli fe`llar bosh, tushum, kam holatlarda jo`nalish kelishigini boshqaradi.

Ikki o`timli fe`llar ikki to`ldiruvchini qabul qiladi: 1. Ob`yekt, ikkinchi darajali o`timli fe`l jo`nalish kelishigida turadi.2. ob`yekt birinchi darajali o`timli fe`l bilan bog`langan. Bunday fe`llar bosh yoki tushum kelishigaida turadi. *Bolaga kitob(ni) berdi. Bolaga rasm(ni) ko`rsatdi. Bolaga she`rni o`qitdi (jo`nalish kelishigi).*

An`anaviy grammatikada ikki valentlik fe`llar o`timli fe`llar deb aytildi.<sup>15</sup>

Buni quyidagi misolda ko`rishimiz mumkin: Alfred frappe Bernard - Alfred Bernarni turtib yubordi , harakat Alfreddan Bernarga o`tyapti.

Biroq an`anaviy grammatikada uch valentlik fe`llarni ifodalovchi maxsus termin yo`q. Ular ikki aktantli fe`llar bilan umumiy, o`timli fe`llar nomi

---

<sup>15</sup> L.Tesnier “Osnovy\_strukturnogo\_sintaxisa” Paris, Librairie C. Klincksieck, 1959 g.254-s.

ostida aralashadi. Ammo shuni ta`kidlash joizki an`anaviy grammatikada o`timli fe`llarning to`rt turi mavjud, нечто вроде подзалогов, biz diateza deb ataymiz.

Aslini olganda, agar biror harakat ikki aktant mavjudligini nazarda tutsa , biz uning qaysi yo`nalishiga amalga oshishiga qarab, uni turli yo`llar bilan ko`rib chiqishimiz mumkin, yoki agar an`anaviy terminga murojaat qilsak, qaysi yo`nalishiga qarab, uning qayerda bir aktantdan boshqasiga o`tadi.

Frapper - urmoq fe`lini misol qilib olsak. Va ikki aktantni :

A (Alfred), qaysiki zarba beradi, va B (Bernard), qaysiki uni qabul qilib oladi, va quyidagi gapni tuzamiz: *Alfred frappe Bernard Alfred Bernarni turtib yubordi*. Bu vaziyatda aytishimiz mumkinki, *frapper –turtib yubormoq* fe`li aktif diatezada ifodalangan, modomiki harakat birinchi aktant tomonidan sodir etilganligi sababli, shunday qilib, harakatning aktif ishtirokchisi hisoblanadi.

Lekin shu fikrni *Bernard est frappé par Alfred* gapi orqali ham ifodalash mumkin. *Bernar Alfred tomonidan turtib yuborildi*. Bu holatda *frapper - turtib yubormoq* fe`li passif formada bo`ladi, birinchi aktant faqat harakatni sezadi, uning harakatdagi qatnashuvi faqat passif holatda bo`ladi.

Aktif va passif o`timlilikning asosiy diatezasi hisoblanadi, biroq bu yagona diatezalar emas, ularni kombinatsiya qilish mumkin.

Masalan, bir shaxsning yoki narsaning o`zi zarba beradi va uni qabul qilib oladi. Ular bir vaqtning o`zida ham aktif ham passif bo`lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ham birinchi ham ikkinchi aktant bo`ladi. Buni quyidagi gapda ko`rish mumkin. *Alfred se tue. Alfred o`zini o`zi o`ldiryapti* . Bu yaerda fe`l o`zlik diatezada. Chunki harakat Alfreddan kelib chiqib, o`ziga qaytyapti.

Shunday holatlar ham bo`ladiki, qachonki ikki harakat parallel sodir bo`ladi, lekin qarama-qarshi yo`nalishda. Har ikki aktantning har biri bir haraktda bir vaqtning o`zida ham aktif rol o`ynaydi ham passif rol o`ynaydi. *Alfred et Bernard s'entretuent* Alfred va Bernar bir-birlarini o`ldirishyapti lekin qarama-

qarshi tomonlarda, ikkalasidan har bir aktant bir harakatda aktif rol o`ynaydi va bir vaqtning o`zida boshqa tarafdan passif rol o`ynayapti.

O`timli fe`llar nisbatining to`rtta diatezasini quyidagi sxema orqali umumlashtirish mumkin:

Aktif diateza: A<sup>^</sup>B

Passif diateza: A < B

Refleksif diateza: A ^

O`zaro diateza: A<sup>^</sup> ^B

### **3.2. Fransuz va o`zbek tillarida o`timsiz fe`llarning tipologik tahlili**

Til o`rganish hozirgi kunda davr talabi bo`lib kelmoqda. Turli tillarni bilish esa ularni qiyosiy o`rganishni talab qilmoqda. Quyida biz o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarni qiyosiy-tipologik o`rganishga harakat qildik va misollar, jadvallar bilan to`ldirdik.

Yuqorida aytib o`tganimizdek fe`ldan anglashilagan harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe`llardagi o`timlilik va o`timsizlikni tashkil etadi.

Fe`l anglatgan harakat va holat narsaning bir qismiga o`tganligi tasdiqlansa, o`timli fe`l chiqish kelishigidagi otni boshqarib keladi: mehmonlar meva-chevadan totinib, qizg`in suhbatga berilib ketdi. (O).

O`timsiz fe`llar tushum kelishigidagi so`zni boshqarib kela olmaydi, odatda, boshqa narsaga o`tmagan, bajaruvchining o`zida qolgan harakatni bildiradi: Sobir hayajonlanib o`rnidan turdi. (O)

Bitta aktantli fe`llar yoki bir valentli fe`llar an`anaviy grammatikada o`timsiz fe`l sifatida tanilgan. Masalan: *sommeiller-uxlamoq, voyager-sayohat qilmoq*.

Alfred tombe- Alfred yiqilib tushyapti, lekin bu prosses Alfreddan tashqari boshqa yana bir aktantga tegib ketishini aytish yoki tasavvur qilish mumkin emas. Biror kishini sayohat qilmoq yoki uxlamoq mumkin emas.

Fe'lning UGMsi — ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash. Holat ifodalash boshqa so`z turkumiga ham xos. Biroq fe`lda u bir tusdan boshqasiga o'tish tarzida. Masalan, *Daraxtlar yam-yashil* gapida sifat-kesim (*yamyashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Daraxtlar ko'kardi* gapida esa holat jarayon sifatida, bir tusdan ikkinchisiga o 'tish tarzida yuz bermoqda.

Bir aktantli fe`llar odatda holat fe`llari hisoblanishadi. Bu shuni bildiradiki , fransuz tilida bular être – bo`lmoq fe`li kesim-aniqlivchi vazifasida keladi.

*L'arbre est vert - Daraxt yashil rangda .* Biroq bir aktantli fe`llar harakat fe`llari ham bo`lishi mumkin. Bu holda boshqa marker yordamida juda nozik ma`no berish mumkin.

*L'arbre est vert- daraxt yashil rangda,* gapida daraxtning holati tasvirlanyapti, *L'arbre verdoie - daraxt yashil tusga kiriyapti* gapida esa qandaydir faol ichki kuch daraxtning o'sishiga manba bo`lgani tasavvurlanadi.

Fransuz tilida *changer* fe`li o`ziga xos xususiyatga ega. Qachonki bir aktantli fe`l sifatida qo`llanganida. Bu o`rinda fe`l sirkonstant bilan moslashadi De predlogi bilan .

Agar konstruksiya ikki aktantli bo`lsa *L'horloger change le ressort de ma montre - bino soati mening soatimning prujinasini o`zgartirdi.* Bir aktantli holatida Alfred change de veste Alfred boshqa kurtkasini kiyyapti holatini ko`rshimiz mumkin.

Bu bir valentli fe`l changer fransuz tilining eng yorqin o`ziga xos fe`l hisoblanadi .

Ko`rinib turibdiki o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarning o`xshashlik tomonlari juda ko`p. Buni quyidagi jadvallarda ham ko`rshimiz mumkin.

<b>O`zbek tilida o`timsiz fe`llar ro`yxati</b>			
jiringlamoq	boshlamoq	charchamoq	kelmoq
O`xshatmoq	bormoq	yugurmoq	zavqlanmoq
jilmaymoq	Yig`lamoq	Sirg`anmoq	qolmoq
yuzlanmoq	kulmoq	yashamoq	qizarmoq
quvonmoq	uxlamoq	Tug`ilmoq	Mavjud bo`lmoq
joylashmoq	turmoq	O`lmoq	yiqilmoq

<b>Fransuz tilida o`timsiz fe`llar ro`yxati</b>			
aboyer	commencer	exagérer	pleurer
abréger	compter	exister	rentrer
agir	conduire	festoyer	rester
agrandir	courir	fondre	retentir
aller	crever	gagner	retourner
apparaître	crier	guérir	revenir
arriver	croître	jouer	ruisseler
avancer	demeurer	marcher	rougir
balayer	descendre	monter	sombrer
balbutier	discuter	mourir	sortir
bégayer	dormir	oser	tomber
bouillir	s'écrier	paître	travailler
chanceler	s'écrouler	partir	venir
changer	entrer	passer	vivre
chanter	étinceler	périr	

<b>Fransuz tilida ba`zi payt, joy va o`lchov bildiradigan fe`llar.</b>	
<b>VERBE + CV DE LIEU, DE TEMPS, DE MESURE.</b>	
ETRE QUELQUE PART / A UN ENDROIT <i>être à / résider à / habiter à</i> <i>demeurer à</i> TEMPS	<i>verbes de mouvements</i> <i>Aller quelque part / à un endroit</i> <i>passer par</i> <i>se rendre à</i> <i>être à</i>

<i>durer,...</i> MESURE, QUANTITE <i>coûter, mesurer</i>	<i>monter, se déplacer.</i> <i>s'arrêter sur, devant, etc.</i>
--	---

O`timsiz fe`llardan keyin kelgan to`ldiruvchilar doim predlog bilan keladi.

Je pense a mes exemens.

Il se sert du dictionnaire.

O`zbek tili o`timsiz fe`l ob`yekt valentligiga ega bo`lmaganligi bois gap tarkibida so`z kengaytiruvchisi bo`lgan vositasiz to`ldiruvchi ishtirok etmaydi.<sup>16</sup>

Masalan : 1. “*Sofiya* ” nashriyoti chop etgan “*Alkimyogar*” romanining birinchi nashrini qo`lga olib, chin dildan **quvondim**. (A.Otayev)

2. Endi xonadon keljakda *ushalajak umid bilan yashay boshlaydi* (T.Malik) 3. Bu umid ba`zan tilga **ko`chadi**.(T.Malik) 4. “*Farzandimiz falon-falon martabaga erishsin...*” *kabi niyat aytilib*, , *duo qilinadi*. (T.Malik) 5. Farzandi *Фарзанда ulg`aya brogan sari qalbdagi umid qanotini keng yoyaveradi*. (T.Malik).

Sub`yekt-ob`yekt kengaytiruvchidan birgina sub`yekt (1.*Ufq qizardi*. 2. *Dara gumburlaydi*. 3.*Bola sog`lom o`syapti*. 4. *Havo sovidi*. 5. *Nido keladi*.), sub`yekt va bir ob`yekt (1.*Archazor ertalabki shababada shovullaydi*. 2. *G`o`za suvga qondi*. 3. *Men tramvayga qarab yugurdim*.4. *Oy tepaga kelgan*. (S.Ahmad)), sub`yekt va ikki ob`yekt (1.*Yigit, vaqtincha tog`dan tushma*. (S.Nurov). 2. *Hamisha senga bir narsa deyishga cho`chiyman*. (S.Nurov), 3. *Suruv tog`da mo`l hosil bilan qishlaydi* (N.Eshonqul) bo`lishi mumkin.

Masalan, tilshunos A.Hojiyev aniq va o`zlik nisbatining o`zaro munosabatini ob`yektlili fe`lni ob`yektsiz fe`lga aylantirish deb lo`nda ifoda etadi. M.Mirtojiyev “O`zbek tili va adabiyoti” jurnalida e`lon qilingan “O`timsizlik va o`zlik nisbati” mavzusidagi maqolasida quyidagini bayon etadi: O`timli tub va yasama fe`lda o`timsizlikni ifodalash ehtiyoji o`zlik nisbat formatini yuzaga keltiradi. O`timsiz

<sup>16</sup> Zamonaviy o`zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). -T.:MUMTOZ ZO`Z, 2008. 296-b

fe`lda anglashilgan harakat yoki holat ob`yekti uning agensi ekanligi kabi o`zlik nisbat fe`lida ham harakat yoki holat ob`yekti uning agensi bo`ladi.”

Aniq nisbatdagi o`timsizlik va o`zlik nisbat fe`li hosil qilgan o`timsizlik orasidagi farq va o`xshashlik diqqatga sazovor. Aniq nisbatdagi o`timsiz fe`lda vositasiz ob`yekt bo`lmaydi. Biro` o`timli fe`l o`zlik nisbat vositasida o`timsiz fe`lga aylanganda, vositali ob`yekt yo`qolib, sub`yekt va harakat munosabati qoladi, ob`yektning tushirilishi esa sub`yektning mavqeini ko`taradi –mustahkamlaydi. Bunda chiqib ketayotgan vositasiz ob`yekt sub`yekt bilan birlashmaydi va to`ldiruvchi ega bilan qovushmaydi – balki u gap semantikasi va sintaktik tuzumidan butunlay chiqib ketadi: 1. *G`ulomjon apil-tapil kiyimini kiydi.* (M.Ismoiliiy) – *G`ulomjon apil-tapil kiyindi.* 2. *Dalaboy birpas bezrayib turdida, uni g`udranib so`kdi.* (*O`.Hoshimov*) – *Dalaboy birpas bezrayib turdi-da, g`udranib so`kindi.* Ko`rinadiki, fe`lning aniq nisbatdan o`zlik nisbat shakliga o`tishi natijasida, birinchidan, o`timli fe`l o`timsizlashayotgan bo`lsa, ikkinchidan vositasiz ob`yekt gap qurilmasidan chiqib ketmoqda.

Bundan tashqari yuqorida aytib o`tganimizdek o`timli fe`llar tushum kelishigidagi so`zni boshqarib keladi, biror predmetga o`tgan harakatni, predmetga qaratilgan va unda biror o`zgarish yuzaga keltiradigan harakat va holatni bildiradi.

Fe`ldagi o`timli-o`timsizlik nisbat kategoriyasi bilan uzviy bog`langan. Chunki nisbat yasovchi affiksni olgan fe`lning o`timli-o`timsizligida quyidagicha o`zgarishlar sodir bo`ladi: Harakatning bajaruvchisi bilan harakat o`tadigan predmet – vositasiz to`ldiruvchi orasidagi o`zaro munosabatda bajaruvchining holatini belgilaydigan morfemaga nisbat yasovchisi deyiladi, bunday morfemalar nisbat shakllari paradigmasini tashkil etadi.

Nisbat paradigmasi o`zbek tilida majhul nisbat va unga zid qo`yib belgilanadigan aniq nisbat shakllaridan iborat.<sup>17</sup> Majhul nisbat markerli: *-l* affiksi bilan yasaladi: *ayt-* *aytil-*, *yasa-* *yasal-* kabi. Ba'zan *-l* affiksi *-n* shaklida qo'shiladi: *ol-* *olin-*, *sayla-* *saylan-* kabi. Ko`rinadiki, majhul nisbat yasovchi

<sup>17</sup> Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006y-160b.

affiks *-l*, *-n* allomorfemalari shaklida namoyon bo‘ladi; bulardan *-l* asosiy, *-n* esa ikkilamchi allomorfema bo‘lib, odatda fe'l leksema tarkibida *l* fonemasi mavjud bo‘lsa, shu fonemaning ta'siri bilan affiksning ifoda jihatni bo‘lib kelgan *l* tovushi *n* tovushiga almashadi, shuning natijasida *-l* va *-n* allomorfemalari, *l* fonemasining *l* va *n* allofonemalari yuzaga keladi.

Majhul nisbat affiksi qo‘shilgan o‘timli fe'l leksemaga zid qo‘yib oppozitiv munosabatda) bunday affiks qo‘shilmagan holat *aniq nisbat* deb yuritiladi.

Aniq nisbat shaklini yasovchi affiks yo‘q, bu nisbatning shakli majhul nisbat shakliga zid qo‘yib nol ko‘rsatkichli morfema deb belgilanadi;

Xatni ukam yoz + di.

Xat yoz + il + di.

Aniq nisbatdagi fe'l leksema vositali to‘ldiruvchini ham boshqarishi mumkin. Bunday fe'l leksemadan majhul nisbat yasalganida vositali to‘ldiruvchi odatda o‘zicha saqlanadi:

*Xatni ukam menga ber + · · + di.*

*Xat · · · menga ber + il + di.*

Demak, o‘zbek tilida majhul nisbatdan va unga zidlab belgilanadigan aniq nisbatdan iborat ikki a’zoli paradigma mavjud. Majhul nisbat o‘timli fe'l leksemadan yasaladi; bunda sintaktik qurilma "bajaruvchi ega + vositasiz to‘ldiruvchi + aniq nisbatdagi fe'l leksema" holatidan "ega vazifasiga o‘tkazilgan vositasiz to‘ldiruvchi + majhul nisbatdagi fe'l leksema" holatiga transformatsiya qilinadi (lot. *transformatio* - qayta qurilish). Majhul nisbat o‘timli fe'l leksemadan yasaladi, shunga ko‘ra aniq nisbatda deb faqat o‘timli fe'l leksemani-gina aytish to‘g‘ri. O‘timsiz fe'l leksema vositasiz to‘ldiruvchini boshqarmaydi; transformatsiyalanuvchi bo‘laklardan biri yo‘qligi sababli majhul nisbat yasab bo‘lmaydi. Demak, o‘timsiz fe'l leksema aniq nisbat – majhul nisbat yasalishi paradigmasida qatnashmaydi.

O‘timsiz fe'lga qo‘shiladigan *-l* affiksi majhul nisbat shaklini emas, balki shaxssizlik shaklini hosil qiladi: (*U uyga bordi* (*Uyga borildi*, *(Ikki kilometr) yurdi* (*Ikki kilometr) yurildi* kabi. Shaxssizlik ma'nosi majhullik ma'nosidan keskin

farq qiladi. Asli -l affaksi majhul nisbat yasovchisi bo‘lib, bu affiksdan shaxssizlik ma’nosini ifodalashda ham foydalaniladi. Ma’nodagi keskin farqni hisobga olib bu yerda hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan -l omomorfemalari haqida gapirish to‘g‘ri.

Demak, majhul nisbat o‘timli fe'l leksemanidan ham, o‘timlilashgan fe'lidan ham yasaladi. Shunga ko‘ra majhul nisbatga zid qo‘yib o‘timli fe'l leksemani ham, o‘timlilashgan fe'l leksemani ham aniq nisbatda deb baholash to‘g‘ri:

*Xatni yozdi Xat yozildi* yasalishi o‘timli aniq nisbat asosida, (*Mashina yurdi*) *Mashinani yurg‘izdi Mashina yurg‘izildi* yasalishi o‘timlilashgan aniq nisbat asosida voqe bo‘ladi.

Nazariy jihatdan majhul nisbat har bir o‘timli, o‘timlilashgan fe'lidan yasalishi kerak, lekin amalda shunday emas. Masalan, *Sen meni urding* deyiladiyu, *Men [sen tomongan] urildim* deyilmaydi. Bunday cheklanishlar turli sabablarga ko‘ra voqe bo‘ladi.

### **III bob bo`yicha xulosa**

1. Fe'lidan anglashiladigan ma’noning boshqa predmetga qaratilganligini biror ob’ektga ko’chganligini ko’rsatish va shu harakatning yuzaga kelishi uchun boshqa predmetning ishtirok etishiga qarab fe’llar o‘timli (*les verbes transitifs*) va o‘timsiz (*les verbes intransitifs*) fe’llarga bo’linadi.
2. Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o’tganligini (vositasiz to’ldiruvchiga), ta`sir qilishini bildiradigan fe`llar o‘timli fe`llar (*verbes transitifs*) deyiladi.
3. Qo`shma fe`llarda o‘timli va o‘timsizlik ma`nosi yetakchi qismga qarab bo`linadi
4. O‘timli fe`llar bir yo`la vositasiz va vositali to’ldiruvchini talab qilishi mumkin .
5. Fransuz tilida kelishik bo`lmaganligi tufayli o‘timli fe`ldan so`ng vositasiz to’ldiruvchi bo`lib kelgan ot yoki olmosh predlogsiz qo` llaniladi.

6. Ikkala tilda ham harakatni anglatadigan fe`llar va shaxssiz fe`llar o`timsiz fe`llar (verbes intransitifs) hisoblanadi.
7. Bitta aktantli fe`llar yoki bir valentli fe`llar an`anaviy grammatikada o`timsiz fe`l sifatida tanilgan.
8. Bir aktantli fe`llar odatda holat fe`llari hisoblanishadi.
9. Fransuz tilida o`timsiz fe`llardan keyin kelgan to`ldiruvchilar doim predlog bilan keladi.
10. O`timsiz fe`l ob`yekt valentligiga ega bo`lmaganligi bois gap tarkibida so`z kengaytiruvchisi bo`lgan vositasiz to`ldiruvchi ishtirok etmaydi.

## Xulosa

1. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, yuqoridagi ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, qadimdan ko`pgina olimlarimiz tomonidan morfologiya sohasida, ayniqsa, fe`l so`z turkumi ustida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Va bu so`z turkumini o`rganish, tahlil qilish hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Shuni ta`kidlab aytishimiz kerakki, o`zbek tilshunosligida so`z turkumlari sohasida aynan fe`l so`z turkumini o`rganish bo`yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asnosida XI asrdan boshlab to hozirgi kungacha zabardast olimlar yetishib chiqdi. Bu esa o`z navbatida o`zbek tilshunosligi taraqqiyotiga, fe`l taraqqiyotiga olib keldi.
2. Turkiy tillar va ularning tilini o`rganishga qiziqish XI asrdanoq boshlangan. Bunga misol sifatida XI asrda yashab o`tgan Mahmud Qoshg`ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoilarni keltirishimiz mumkin. Mustaqillik yillaridan keyin ham fe`l so`z turkumi olimlar tomonidan o`rganib kelinmoqda. Xususan, tilshunos R.Rasulovning “O`zbek tili fe`lining ma`no tuzilishi” qo`llanmasi, M.Mirtojiyevning “O`zbek tilida fe`l valentliklari”, M.Jo`raboyevaning “O`zbek tili morfologiyasi. Fe`l” qo`llanmasi, B.Bahriiddinovaning “O`zbek tilida fe`l lug`aviy shakli” mavzusiga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiya ishi, R.Bobokalonovning “Fe`l valentligi munosabati

xususida” yozgan maqolalari fikrimizning dalilidir. Fe`lni qiyosiy o`rganishda ham ancha ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, fransuz va o`zbek tillarida R.Bobokalonov, N.Hayatovalar chog`ishtirma tilshunoslik yo`nalishda ish olib bormoqdalar. Chunonchi, ularning “Le sens lexical des verbes. Analyse des champs sémantiques de la vie et de la mort” maqolalarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

3.O`zbek va fransuz tilida o`timsiz fe`llarni o`rganish jarayonida har ikkala tilda o`timsiz fe`llarning farqli tomoniga nisbatan o`xshashlik tomonlarini ko`p uchratdik. O`zbek va fransuz tilida o`timli fe`llar ikkiga bo`linadi.

4.Vositali va vositasiz to`ldiruvchili o`timli fe`llar bir – biridan o`zidan keyin predlog olishi yoki olmasligi bilan farq qiladi.

Ya`ni agar ot to`ldiruvchi bo`lib kelsa vositasiz to`ldiruvchili o`timli fe`llar, Agar kesim to`ldiruvchi bo`lib kelsa vositasiz to`ldiruvchili o`timli fe`llar bo`ladi.

5.Bundan tashqari ba`zi fe`llar gapda bir vaqtning o`zida ham vositali ham vositasiz to`ldiruvchi bo`lib kelishi mumkin.

6. O`timli fe`llar bosh, tushum, kam holatlarda jo`nalish kelishigini boshqaradi.

7. Ikki o`timli fe`llar ikki to`ldiruvchini qabul qiladi: 1. Ob`yekt, ikkinchi darajali o`timli fe`l jo`nalish kelishigida turadi.2. ob`yekt birinchi darajali o`timli fe`l bilan bog`langan. Bunday fe`llar bosh yoki tushum kelishigaida turadi

8. An`anaviy grammatikada ikki valentlik fe`llar o`timli fe`llar deb aytildi.

9. “Transitivlik---faqat fe`llarning grammatik xususiyati emas, balki , fe`l orqali ifodalangan harakatning qanchaligini aniqlaydigan, predmetga to`g`ridan-to`g`ri o`tadigan aqliy kategoriya hamdir.

10. Tranzitivlik bu hodisaning semantik komponentining an`anaviy ko`rinishidir.

11. Transitivlik valentlik bilan bevosita bog`liq. Fe`lning valentligi- fe`lning sintaktik munosabatga boshqa elementlar bilan kirish qobiliyatidir.

Yevropa tilshunosligiga “valentlik” atamasi Lucien Tesnier tomonidan kiritilgan. U bu haqida shunday deydi: “Valentlik faqat fe`lga xos xususiyat”. Uning so`zlariga ko`ra valentlik-fe`l biriktira oladigan aktantlar miqdori . “Elements de syntaxe structurale” kitobida Tesnier valentlikni bunday izohlaydi: “ Valentlik verbosentrik nazariyasining asosi”. Ya`ni “Har qanday gap asosida fe`l yotadi”,- deb aytadi. U gapni xuddi teatr dramasi deb aytadi. Bunda fe`l harakat, aktantlar-aktyorlar, sirkonstantlar esa jarayon rivojlanuvchi holatlar hisoblanadi. Aktantlar - bu otlar va ularning ekvivalenti hisoblanadi. Sirkonstantlar esa ravish hisoblanadi. Aktantlar fe`lga teng bo`ysunadilar, ular bir-birini almashtirib turadilar.

fe`l turkumiga oid barcha hodisalarning mohiyatini to`la bayon etish, ularning kelib chiqish asosini to`laqonli ochib berish juda katta hajm talab etadi. Shunga qaramay biz bugungi maqolamizda fe`l so`z turkumi , o`timli va o`timsiz fe`llarning ma`no tuzilishi haqida biroz bo`lsada ma`lumot bera oldik deb o`ylayman.

12. Fe`llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko`ra mustaqil\_fe`llar va yordamchi fe`llarga bo`linadi

Mustaqil fe`llar harakatni bildiradi, mustaqil ma`noga ega bo`lgan va gapda uning biror bo`lagi vazifasida kela oladi

13. Bundan tashqari mustaqil fe`llarning ot, sifat, ravish turlariga xos xususiyatlariga ega bo`lgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakillari ham mavjud.

14. Yordamchi fe`llar asosiy xususiyatlariga qarab, so‘z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog‘lanma fe`l vazifasini bajaruvchi yordamchi fe`llar, fe`llarga birikib turli qo‘shma ma’no ifodalovchi fe`llarga ajratiladi.

15. Fransuz tilida asosan o`tgan zamонни yasash uchun yordamchi fe`llar ishlataladi.

16. Fransuz tilida so`z o`zagiga affiks (prefiks, suffikslar) qo`shilish yo`li bilan hosil qilingan fe`llar yasama fe`llar deb yuritiladi.

17 Fransuz tilida fe`llar uch guruhga bo`linadi.

18. O`timli va o`timsizlik, bo`lishli va bo`lishsizlik, zamon, mayl, nisbat, shaxs, son kabi grammatik kategoriylar fe`lning o`ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

**Shaxs** (la personne) ish-harakat bajaruvchisining so`zlovchiga bo`lgan munosabatini ko`rsatadi.

**Son** (le nombre) kategoriysi fe`l formalari orqali eganing birlik yoki ko`plikda ekanligini ko`rsatadi.

Mayl (le mode) fe`ldan anglashilgan ish-harakatning voqelikka munosabatini anglatadi hamda ish-harakatning haqiqatan bajarilganini, bajarish haqida buyruqni, bajarilishi shart yoki bajarishga majbur ekanligini ifodalaydi.

Zamon (le temps) ma`nosi ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Harakat so`zlanib turgan paytdan oldin, u bilan bir vaqtda yoki undan keyin bajarilishini ko`rsatadi. Fransuz tilida sakkizta zamon mavjud

Nisbat (la voix) is-harakatning bajaruvchisi (sub`yekti) bilan predmeti (ob`yekti) o`rtasidagi munosabatni ko`rsatadi.

19. Fe`l formalarining hammasi ham shaxs kategoriyasiga ega bo`lavermaydi, shunga ko`ra fe`lning shaxsli va shaxssiz formalari mavjuddir. Fe`llarning shaxsli formalari shaxsga ko`ra o`zgarib gapdagি kesim yoki ot kesimda bog`lovchi fe`l (verbe copule) vazifasini bajaradi.

20. Fe`llarning shaxssiz formalariga infinitiv (infinitif), sifatdoshlar ( le participe present, le participe passe, le participe passe compose) va ravishdosh ( gerondif) lar kiradi.

21. Fe`llarning shaxssiz formalari shaxslarga ko`ra o`zgarmaydi, ular gapda turli gap bo`laklari vazifasida kelishi mumkin

Predmetga o`tgan harakatni bildiruvchi fe`llar, transitif fe`llar deb ataladi. Boshqa barcha fe`llar intransitive fe`llar hisoblanadi. O`timli fe`llar o`zida ot

yoki tushum kelishigidagi olmoshga ega bo`lishi mumkin ya`ni predlogsiz keladi

Shunday qilib, xuddi kimyoda birikma hosil qilish uchun muayyan miqdordagi atomlar talab qilingani kabi tilshunoslikda ham "grammatikk jihaldan to`g`ri gap hosil qilish uchun fe'l qancha bolak talab qilsa, shuncha bo`lakni unga biriktirish zarur" .

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

### **I Dasturiy adabiyotlar**

1. Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ– 1875–son Qarori, 2012 yil 10 dekabr.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-son Farmoni // “Xalq so`zi” gazetasi, 8.02.2017 y., 28(6722)-son.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O`zbekiston Respublikasi oily ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida ”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
4. O`zbekiston Respublikasi «Ta`lim to`g`risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.

### **II Ilmiy adabiyotlar**

1. A.N. Kononov. Grammatika Uzbekskogo yazika. Tashkent. 1948 g.
2. Babayan M.A. Flerova N.M. Prakticheskaya grammatika fransuzskogo yazika. Moskva : 1964 g

3. Bobokalonovning R “Fe'l valenligi munosabati xususida” Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'rghanishning yanada rivojlantirish afzalliklari. Res.ilmiy-amaliy konf.mat. Buxoro, 2018 y
4. Bobokalonovning R. Hayatova N. “Le sens lexical des verbes. Analyse des champs sémantiques de la vie et de la mort” Актуальные вопросы гуманитарных и общественных наук Сборник научных трудов Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, Часть 2. Ассоциация «Научно-исследовательский центр «ПЕРЕСВЕТ» САНКТ-ПЕТЕРБУРГ, 2019 g
5. Delatour, Y., Jennepin, D., Leon-Dufour, M. et Teyssier, B. Nouvelle Grammaire du français (Hachette). (1991)
6. Fozilova M. Bitiruv malakaviy ish- 2017y
7. Fouine 18. (Mars, 2007). Les verbes transitifs et intransitifs . Recherché et extrait de <http://www.francaisfacile.com>.
8. Hojiyev A. Fe'l. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1973 y
9. Hojiyev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1966
10. Hojiyev A. To'liqsiz fe'l. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1970 y
11. Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G'ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: —iqtisod -moliyal 2007 y
12. Isakova G.N. Fransuz tilida fe'l so`z turkumi. Fransuz tili grammatikasi fanidan o`quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.
13. Mutallibov S. Devoni lug`otit turk. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi).
14. Mimran, R. et Poisson-Quinton, S. (octobre 2005). Grammaire Expliquée du français, 110, 112.
15. Nurmonov A. “O'zbek tilshunosligi tsixi” Toshkent , “O'zbekiston”, 2002 y.
16. P.Qodirov —Yulduzli tunlar— Yangi ast avlodil nashriyoti .2015 yil.
17. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarinig bog`lashuvi. Universitet 1992 y

18. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiyo`zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006 yil.
19. Kostetskaya Ye. O. Kardashevskiy V.I. Prakticheskaya grammatika fransuzskogo yazika. Moskva : vissaya shkola 1973 g
20. Rajabov N. O`zbek xalq shevalarida fe`lning morfologik tuzilishi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1990 y
21. Sodiqova M. Fe`l stilistikasi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1975 y
22. Secile N. Le Grevisse de l`etudiant grammaire graduelle du francais.
23. Zaslavskaya P.I. Alyamskaya N.V. Grammatika fransuzkogo yazika. Moskva vissaya shkola 1978 g
24. Zamonaviy o`zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). - T.:MUMTOZ ZO`Z, 2008 y
25. Victor Hugo. — Les contemplations - Paris. 1856 yil.
26. Shukurov Sh. O`zbek tilida fe`l mayllari taraqqiyoti. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1980 y
27. O`zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1973 y
28. O`zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1976
29. Shukurov Sh. O`zbek tilida fe`l zamonlari taraqqiyoti. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1976 y
30. Les verbes transitifs et intransitifs – la conjugaison . fr.(2010, Avril 13). Recherché et extrait de <http://www.la-conjugaison.nouvelobs.com>.
31. L.Tesnier "Osnovy strukturnogo sintaksisa" Paris, Librairie C. Klincksieck, 1959 g
32. V.G.Gak "Teoricheskaya grammatika fransuzkogo yazika" Yantarniy skaz. 1997 g
33. V.M.Alpatov. "Istoriya lingvisticheskix ucheniy" Yaziki slavanskoy kulturi. Moskva. 2005 y.

34. A. Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” Toshkent. “O`zbekiston” nashriyoti. 1992 y.
35. F. de Sossyur “Zametki po obschey lingvistike” Moskva. “Progress” 2000 g.
36. S.D. Nechayeva. “Perexodnost I neperexodnost Norvejskogo glagola” Vipusknaya kvalifikatsionnaya rabota. Sankt Peterburg. 2016 g.
37. Andreas Blinkenberg. “Le probleme de la transivite en francais moderne”. Kobenhavn 1969 y.
38. Yu.Ye. Galyamina. “Transitivnost, zalog I leksicheskaya semantika glagola”. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchyoniy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Moskva. 2006 g.
39. E. Benvenist “Obshchaya\_lingvistika” “Progress” Moskva. 1974 g.
40. Scherbak “Old Uzbek Grammar” Moskva . Leningrad. 1962 g.
41. L. Doliyeva “Fransuz frazeologiyasida holat kategoriyasi” Magistrlik dissertatsiyasi.
42. S.Z. Saidova “Ozbek tili o`timsiz fe`llarining xususiyatlari”. Ijodkor o`qituvchiilmiy uslubiy jurnal. 2022 y.
43. S.Z Saidova “ O`zbek va fransuz tillarida otimsiz fe`llarning tipologik tahlili” Tafakkur va talqin jurnali 2022 y.
44. S.Z.Saidova “ Fransuz tilida o`timsiz fe`llarining xususiyatlari” Tafakkur va talqin jurnali 2021 y
45. S.Z. Saidova “O`zbek tili fe`llarining o`rganilish tarixi”. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2022 y.
46. M.N. Epnshteyn Otvorcheskom potensiale russkogo yazika. Grammatika perexodnosti I transitivniye obshchestvo. Znamya.2007 g.
47. R.O. Yakobson “K obshemu ucheniyu o padeje.” Izbrannye trudi. 1985 g.
48. Hopper Paul , A.T. Sandra “Transivity in grammar and Discourse.” Language. 1980 y.
49. Lazard Gilbert. What is a transitive verb? Mejdunarodnaya konferensiya “Kategorii glagola I struktura predlojeniya”: tezisi dokladov. Otv.red. Xrakovskiy V.S. 2001 g.

50. Miller J. G. Complex Verb Formation. Amsterdam: Benjamins, 1993 g.
51. Левицкий Ю.А., Шаламов Ю.В. Переходность и валентность //<http://old.kpfu.ru/conf/LENCA-2/291.pdf> 2015г.
- Есперсен О. Философия грамматики. Москва, Издательство иностранной литературы, 1958. – 400с.
52. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности. // Вопросы языкознания, 1987 г.
53. Kittila Seppo. Transitivity: Towards a Comprehensive Typology. University of Helsinki, 2014.
54. Saussure F. de. Cours de linguistique générale. Paris, Payot et Rivages, 1976 g.
55. Bally, Charles. Traité Stylistique Française. Vol. 2. Heidelberg: Carl Winters Universitätbuchhandlung, 1921.
56. Kittila Seppo. Transitivity: Towards a Comprehensive Typology. University of Helsinki, 2014
57. De Mattia-Vivies Monique. The Passive and the Notion of Transitivity // Review of European Studies
58. Bilous R. Transitivity revisited: an overview of recent research and possible solutions // Actes du congrès annuel de l'Association canadienne de linguistique 2012
59. Буланин Л.Л. О соотношении переходности и залога в русском языке. // Ученые записки МОПИ. 1970.
60. Плунгян В.А. Общая морфология: введение в проблематику. М.: Едиториал УРСС, 2003.

### **Foydalanilgan lug‘atlar**

- 1.. Arutyunova N. s. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M. : Sovet. ensikl., 1990. - S.136-137.
2. Gak V.V. Noviy fransuzsko-russkiy slovar/V.G.Gak, K.A.Ganshina. – 5-ye izd., ispr. – M.: Rus.yaz., 2000. – 1195 s.

### **Интернет сайtlари**

1. Fouine 18. (Mars, 2007). Les verbes transitifs et intransitifs . Recherché et extrait de <http://www.francaisfacile.com>.
2. Les verbes transitifs et intransitifs – la conjugaison . fr.(2010, Avril 13). Recherché et extrait de <http://www.la-conjugaison.nouvelobs.com>.
3. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskii slovar. <http://tapemark.narod.ru/les/>
4. Verbes transitifs et intransitifs - Français facile <https://www.francaisfacile.com>.
5. <https://www.podcastfrancaisfacile.com> › Verbes transitifs et intransitifs - leçon en français facile.